

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Qo`lyozma huquqida

Qodirova Dilafruz

**“Mumtoz adabiyotda ma’shuqa xarakteri talqinida
noan’anaviy usullar”**

mavzusidagi 5220100 – FILOLOGIYA (o`zbek filologiyasi) ta`lim yo`nalishi

bo`yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY
ISHI

Ilmiy rahbar:

prof. B.Jalilov

Andijon -2017

“Davlat Attestatsiya Hay`atiga”

“Himoyaga qo`yishga ruxsat beraman”

Fakultet dekani:

f.f.n. dots. U.Rahimov

“ ” _____ 2017

“Himoya uchun taqdim etaman”

Kafedra mudiri:

f.f.n. dots. H.Karimov

“ ” _____ 2017

“Himoyaga tavsiya etaman”

Rasmiy taqrizchi:

oliy toifali o`qituvchi SH.Mamatojiyeva

“ ” _____ 2017

„Himoyaga tavsiya etaman”

Ilmiy ish rahbari:

prof. B.Jalilov

„ ” _____ 2017

MUNDARIJA

I.Kirish	5
1.Bitiruv malakaviy ishning umumiy tavsifi.	7
II.Asosiy qism	
1.Mumtoz adabiyotda ma'shuqa xarakteri talqini.....	11
2.Ma'shuqa xarakteri talqinidagi noan'anaviy usullar.....	31
3.Ma'shuqa xarakteridagi salbiy xususiyatlar talqini.	50
4.Ma'shuqa xarakteridagi ijobiy xususiyatlar inkori.....	60
III.Xulosa.....	68
IV.Adabiyotlar ro'yxati.....	71

“ Agar klassik lirikadagi ma’shuqa (seviluvchi) obrazining barcha xarakter sifatlarini bir joyga to’plasangiz, sizni daxshat bosadi. Ko’zingiz oldida bir dilbar paydo bo’ladiki, uning qilib turgan ishi zulm, sitamgarlik, beshafqatlik.

Ko’zingiz oldida bir jallod jilvalanadiki, u o’z xohishiga qarab, bir mamlakatni barbod berish mumkin. U beparvo, yolg’onchi, qasambuzar, ginachi. Hikoyat, oshiqona g’azallar sizga ochib bergan dilbar xudkom, qo’pol, doimo sizni xor, raqiblarni aziz qilib kelgan makkor insondir.”

M.Shayxzoda

Kirish

Mumtoz adabiyot – milliy va jahon badiiy madaniyati xazinasini tashkil etgan, ko'pchilik tomonidan tan olingan mashhur asarlar silsilasi. Mumtoz adabiyotimiz sarhadlari bepoyon, bag'ri keng va ulug'vor. Azaldan uning hamma mintaqalarida badiiyat nahrlari to'lib oqqan, elini yurtini kuylagan buyuk shoirlar, adiblar yetishgan. O'zbek tuprog'ida nazm va nasr irmoqlari qo'shilib, so'z san'atining ulkan irmoqlari vujudga kelgan. undagi yaxlitlik, mushtaraklik, o'ziga xoslik sifatleri asrlar osha sayqal topib, ma'naviy olamning yuksalishiga beqiyos ulush baxshida eta boradi.

Badiiy adabiyotning inson kamolotidagi o'rni yuksak ekanligi barchaga yaxshi ayon. Zero, inson ko'ngli kechinmalari, nozik va nafis tuyg'ulari ifodasi bo'lgan so'z san'atining nazokati va sehru jozibasi asrlar osha jilolanib kelmoqda. Bu narsa mumtoz shoirlarimiz asarlari orqali yanada oydinlashmoqda.

O'zbek mumtoz adabiyoti xalqimizning ma'naviy mulki, uning hayoti, shuuri, ruhiyati bilan chambarchas bog'liq. Mumtoz adabiyotimizni puxta o'rganish, buyuk san'atkorlarimiz hayoti, shaxsiyati, asarlarini talabalar, o'quvchilar qalbiga singdirishning ahamiyati bugungi kunda yanada yorqinroq namoyon bo'lmoqda. Muxtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Sharq sivilizatsiyasi yutuqlarini, o'tmish ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy boyligini chuqur va har tomonlama o'rganishimiz darkor... Buyuk ajdodlarimiz bo'lmish mutafakkir, olimlar, go'zallik ijodkorlarining biz uchun yangi bo'lgan nomlari va asarlarini milliy ma'naviyatimiz xazinasiga qaytarish muqaddas vazifamizdir"¹

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng mumtoz adabiyotimiz, uning ayrim vakillari merosiga munosabat ham o'zgardi. Adabiy asarlarni tahlil qilishdagi bir yoqlamalikka barham berildi. Uzoq yillar davomida asarlari chop

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari -T.: «O'zbekiston», 1999, 397-398-betlar

etilmagan, merosi yetarlicha tadqiq etilmagan A.Yassaviy, S.Boqirg'oniy, Rabg'uziy, Husayniy, Feruz, Amiriy kabi shoirlarimiz kitoblari xalqqa etkazildi. Ularga doir ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Tasavvuf, o'zbek tasavvuf adabiyoti haqida qator ishlar qilindi. Ma'lumki, sobiq sho'rolar davrida mumtoz adabiyotimiz namunalari, uning ijodkorlarini "xalqchil adabiyot" yoki "progressiv adabiyot", "diniy - mistik adabiyot", yoki "reaktsion adabiyot" vakillari sifatida ajratish tamoyillari bor edi. Buni o'sha davr mafkurasi, qarashlari bilan bog'lash mumkin. Ammo bugungi kunda badiiy adabiyotni bu tarzda ajratish, bir yoqlama yondashish noo'rin ekanligi seziladi.

Bugungi kunda ma'naviyat, milliy istiqlol g'oyasi haqida ko'p gapirilmoqda. O'zbek mumtoz adabiyotining ham bu boradagi o'rni beqiyos ekanligi ko'p bora ta'kidlanmoqda.

I. Bitiruv malakaviy ishing umumiy tavsifi

MAVZUNING DOLZARBLIGI. Adabiy merosimiz sermazmun va badiiy rang - barangligi bilan asrlar davomida o'z badiiy qadr - qimmatini saqlab kelmoqda. Shuningdek, mana shu adabiy merosimiz namunalari mutaxassislar tomonidan imkoniyat darajasida o'rganilmoqda. "Zotan, tarix – xalq ma'naviyatining asosidir."²

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, har bir sohaga shu jumladan, adabiyotga ham alohida e'tibor qaratildi. Shu aytgan fikrimizning dalili sifatida birinchi yurtboshimiz I.A.Karimovning quyidagi jumlasini keltirishimiz mumkin: "Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyatini chuqur bilish va tushunib yetishga suyanadigan qudratli kuchga aylanadi".³

Mumtoz adabiy me'rosimizni, adabiyotshunos olimlar ta'kidlaganidek, davrdan uzoqlashganligimiz sari uni tushunish murakkablashadi. Shu bois tarixdan uzoqlashmagan holda insonni tarbiyalab borish haqida yurtboshimizning quyidagi fikrlarini bayon qilmoqchimiz:

"Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Shuningdek, axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda."⁴

Ushbu bitiruv malakaviy ishi ham adabiyotshunoslik tarixi bilan bog'langan holda olib borilmoqda. Adabiyotshunoslardan biri : "Ishq masalasida adashsak, bilingki, mumtoz she'riy asarlarning asl mohiyatini tushunib yetmaymiz", - degan edi. Haqiqatan ham, mumtoz she'riyatda asosan ishq atrofida gap ketadi. Ishq mavzusi adabiyot uchun hamisha eng ko'hna va hamisha navqiron mavzu hisoblanadi. Ishq insonning ma'naviy olamini shakllantirish, tarbiyalash

² Каримов И.Адолатли жамият сари. -Т.: Ўзбекистон.1998-й, 53-бет.

³ Каримов И. Истиклол ва маънавият. - Т.: Ўзбекистон. 1994-й, 22-бет.

⁴ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. -Т.: Ўзбекистон. 1977-й, 140-бет.

qudratiga ega bo'lgan kuchdir. Ishq haqida gap ketarkan, beixtiyor uning bevosita tashkil etuvchi obrazlar: oshiq va ma'shuqa obrazlari tasavvurimizda gavdalanadi. An'anaviy mumtoz adabiyot namoyondalarining ijodida asosan ma'shuqaning ko'zining qoraligi, sochining uzunligi, belining ingichkaligi, og'zining kichikligi kabi sifatlari juda ham chiroyli qilib baytlar orqali ifodalangan. Shu ma'noda ushbu bitiruv malakaviy ishimiz ham mumtoz she'riyatimizning o'ziga xos jozibasini, mumtoz shoirlarning badiiy mahoratini, oshiq va ma'shuqa munosabatlari bilan birgalikda ma'shuqa tasviridagi noan'anaviylikni o'rganish borasida amalga oshirilgan o'ziga xos kichik bir tadqiqot hisoblanadi. Noan'anaviylik shundaki, mashuqaning faqat ijobiy xususiyatlari emas, balki uning bevafoqligi, jabr-zulmkorligi, sitamgarligi oshiqni doim g'am-g'ussaga qo'yishi kabi salbiy xususiyatlarini yoritish va qolversa, mashuqaning mumtoz adabiyot ijodkorlarining namunalarida aks etgan juda ham go'zal sifatlarini yoritish, ularni o'zaro solishtirish va shuningdek, ma'shuqadagi belgi-xususiyatlar o'xshatilayotgan predmetlardan ham ko'ra a'loq ekanligini baytlar orqali tahlil qilish, izohlash juda qiziqarli va muhim masalalardan hisoblanadi. Aytish kerakki, oshiq va ma'shuqa munosabati, ma'shuqa xarakterining an'anaviylikdan chetlanib, noan'anaviy jihatlarining yoritilishi har vaqt ham o'zining dolzarbligini yo'qotmaydigan masalalardan hisoblanadi.

MAVZUNING O'RGANILISHI. Istiqlool mumtoz adabiyotni to'laligicha, aslicha o'rganish imkonini berdi. Endigi vazifa mumtoz adabiyotni to'g'ri va to'la tahlil qilish orqali uning sehrini, jozibasini yoshlar qalbiga olib kirish, shu yo'l bilan ularda mumtoz adabiyotga, qadriyatlarimizga bo'lgan mehrni tarbiyalash, ularni ma'naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalashdan iborat.

Hozirda ming yillik o'z tarixiga ega adabiy merosimizning noyob durdonalari adabiyotshunos olim va olimalar tomonidan dolzarb masala sifatida o'rganib kelinmoqda. Men ushbu bitiruv malakaviy ishimga ilmiy rahbarim boshchiligida Xorazmiy, Otoi, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur va shu

kabi yetuk mumtoz adabiyot namoyondalarining ijod namunalarini asos qilib oldim.

Adabiyotshunoslardan A.Fitrat, A.Hayitmetov, M.Shayxzoda, H.Sulaymonov, Y.Is`hoqov, N.Mallayev, A.Abdug`afurov, E.Rustamov, V.Zohidov, B. Valixo`jayev, R. Orzibekov, I. Haqqulov, S.Erkinov, N.Davron, R.Vohidov, H.Eshonqulov, H.Zaripov, B.Akram, A.Qayumov, N.Komilov, Q.Tohirov, S.G`aniyeva, B.Jalilov, A.Rustamovning qator ilmiy ishlarida, maqolalarida, kitoblarida adabiy merosimizning qimmatbaho durdonalari tahlil qilib o`rganilgan va hozirgi kunda ham davom etmoqda. Mana shu adabiyotshunos olimlar tomonidan tahlil etilgan asarlar hozirgi kunda adabiyotshunosligimizning katta yutuqlaridandir. Mazkur ilmiy asarlar orqali uzoq davrlarga taalluqli asarlarimiz va ijodkorlar haqida umumiy ma`lumotlarga va eng asosiysi ular ijodidagi ma`shuqa xarakterini ochib berishda qo`llanilgan o`ziga xos jozibador, noan`anaviy usullarning go`zal ifodasini kuzatib, o`rganish baxtiga ega bo`lamiz.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI. Mumtoz she`riyatda ma`shuqa xarakteridagi noan`anaviylikni alohida tadqiq qilish mazkur bitiruv malakaviy ishning asosini tashkil etadi. Mazkur ishni amalga oshirish jarayonida o`z oldimizga quyidagi maqsad va vazifalarni belgilab oldik:

- mumtoz badiiyat bilan bog`liq risola va qo`llanmalar, ularda oshiq va ma`shuqa munosabat masalalarini o`rganish;
- mumtoz shoirlar ijodi bilan bo`g`liq materiallarni to`plash va ulardan ishimizga aloqador qismini o`rganish, tahlil qilish;
- mumtoz she`riyatda oshiq ruhiyati, iztiroblari, kechinmalari hamda ma`shuqa tasviridagi o`ziga xosliklar, mazkur masaladagi mumtoz shiorlarning badiiy mahoratini o`rganish;

- mumtoz she'riyatda shoirlarning ma'shuqa tasviri ifodalangan baytlarni solishtirib, ulardagi o'ziga xos noan'anaviy usullarni ochish;

TADQIQOTNING OB'YEKTI VA METODI. Bitiruv malakaviy ishimni yozish jarayonida adabiyotshunos Sayfiddin Sayulloh tomonidan nashr etilgan "O'tiy devon"i, S.Erkinov tomonidan nashr etilgan "Lutfiy devon"i, Alisher Navoiyning 10 jildlik to'la asrlar to'plamidagi 1-2-3-4-jildlar, M.Abduvohidova, H.Muxtorova, B.Qosimxonov, O.Jo'rayev tomonidan nashrga tayyorlangan "Muborak maktublar" kitobi va A.Fitrat "O'zbek adabiyoti namunalari" kitobi asosiy manbaa vazifasini o'tadi.

Ishni yozishda qiyosiy metoddan foydalandim. Mumtoz adabiyot namoyondalarining ijod namunalarini o'zaro solishtirib, qiyoslab ulardagi noan'anaviy usullarni ochib berishga harakat qildim. Shoirlarning o'ziga xos mahoratiga e'tibor berdim.

ISHNING TUZILISHI. Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, to'rt asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-bob. Mumtoz adabiyotda ma'shuqa xarakteri talqini

“Sharq adabiyotining hashamatli, rangin bir tarixi bor. Bu dabdabali tarixning oldidan o'tganda bu kungi Ovro'pa adabiyoti ham shapkasini olib salom berib o'tadir, shunga o'zini majbur ko'radur”.

Abdurauf Fitrat.

Mumtoz adabiyotdan bizga ma'lumki, ma'shuqa go'zalligi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- a) sochining uzunligi;
- b) belning nozikligi;
- c) og'izning kichikligi;
- d) qaboqning kengligi;
- e) ko'zning qoraligi;
- f) lab va yuzning qizilligi;

Ushbu sifatlar ma'shuqa go'zalligini tashkil etadi.

Men ushbu timsollar ichida “ko'z” timsolini tanlab oldim. Turkiy she'riyat tarixi haqida so'z borganda, bir qator timsollarning avval arab, keyin fors va so'ng turk adabiyotiga kirib kelganligini ham ta'kidlash lozim. G'azalda qo'llangan obraz va poetik timsollar muayyan bir qonuniyatga, g'azal kompozitsiyasining yaxlitligini ta'minlab turuvchi vazifaga egadir. Bundan tashqari, badiiy timsollar orqali nafaqat yorning go'zalligi, balki zamon va davr talablari, ya'ni g'oyaviy-estetik ehtiyoj ham aniq ko'rinib turadi. Ishqiy va orifona g'azallar tarkibidagi timsollar asosan oshiq va ma'shuqa munosabatini xarakterlashga xizmat qiladi. Bu haqda I. V. Stebleva shunday deydi: “G'azallardagi obrazlar va timsollar qanday bo'lsa ham ma'shuqa husnini turli- tuman ko'rinishda namoyon qilish yoki oshiq (lirik

qahramon)ning har bir holatidagi iztiroblarini ko'rsatish zarur. Boshqacha qilib atganda, har qanday holatda ham yaratilgan obraz jononning jozibadorligi, nozikligi, go'zalligi va maftunkorligini, shu va shunga o'xshash boshqa sabab va xususiyatlarni gavdalantirib berishi kerak. Lirik qahramon ma'shuqaning beqiyos go'zalligini eslab, sog'inadi, uning e'tiborsizligidan, vafosizligidan iztirob chekadi, yig'laydi. Bu detallarning barchasi quruq faktlarning qaydi emas, balki obrazlar haqidagi qarashlarning alohida ahamiyatiga molikligidir.”⁵

Ba'zan obrazlarning badiiy ahamiyatini yanada teran ochib berish uchun ularning uzoq asrlik takomilini, tadrijiy rivojini bilish zarur. Masalan, obraz yaratishning vosita, omillardan biri bo'lgan tashbeh san'ati orqali ko'zni jodu, qiymoch, nargis, ohuga va boshqalarga o'xshatish sharq she'riyatida, jumladan, arab, fors va turk xalqlari adabiyotida an'anaviy qoidaga aylanadi. Ayni paytda zulf, qosh, kiprik, qaboq, xol, yanoq, og'iz, lab, tish, engak, zaqandon, soch kabi insonning uzvi bilan bog'liq o'ziga xos tasviriy vositalar ham an'anaviylik kasb etadi.

Klassik she'riyatda inson a'zolarining turlicha talqini mavjud bo'lib, voqea va zamon o'tishi bilan bu talqinlar takomillashib, chuqurlashib borgan. Inson a'zolari to'g'rirog'i ma'shuqaning asosan yuz a'zolari turli narsa-predmetlar, xususan, yuz-oyga, qosh yangi chiqqan oyga, hilolga, kipriklari o'qqa va labi g'unchaga, la'lga va hokazolarga qiyos qilish kabi o'xshatishlarni mumtoz adabiyotimiz namoyondalarining ijodida ham ko'plab uchratish mumkin. Mumtoz adabiyotimizda yorning yuzi, ko'zi, qoshi, labi, sochi, yanog'i, beli, xoli kabi a'zolari keng va turli –tuman ma'nolarda badiiy, falsafiy aspektida tasvirlangan. Quyida so'z yuritmoqchi bo'lib turgan timsollardan biri “ko'z” timsoli ham ana shunday xususiyatlarga ega.

⁵ Стеблева И. В. Семантика газелий Бабура. Москва, 1982, стр. 103.

“Ko`z” sof “turkcha” so`z bo`lib, mumtoz she`riyatida beqiyos topilmalarga egadir. U nafaqat timsol, balki obraz darajasiga chiqqan baytlarga ega. Biz “ko`z” orqali nafaqat yori-ma`shuqa, mahbuba go`zalligini, shuningdek, Haq-taollo (Olloh) ishq, basirat darajasini jilolanganiga guvoh bo`lamiz.

“Ko`z” badiiy adabiyot san`atlaridan tanosib, tashbeh, sifatlash, tazod, tajnislarni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, bu holat ko`z va boshqa timsollar birgalikda qo`llangan chog`da yuzaga keladi. Shuningdek, ko`z timsoli yorning go`zalligini, nafosatini va oshiqning qiynog`-u azoblarini ifodalashga xizmat qiladi. Biz uning tana a`zosi, ya`ni, ko`rish a`zosi ekanidan xabarimiz bor. Ya`ni ko`z kishilarda bir-biriga nisbatan ta`sir etish jarayonini aks ettiradi. Fanda, ham adabiyotda uning bir-biriga o`xshash va mushtarak jihatlari isbotlanganiga guvoh bo`lamiz.

Chunki ko`z ham botiniy, ham zohiriy fazilat va illatlarni fosh etuvchi a`zodir. Insoniyatning ko`zi mo`jizaviy va takrorlanmasdir. Buni fan tili ham isbot etganini ko`rishimiz mumkin. Yillar davomida inson o`zgarib, boshqa a`zolar tanib bo`lmas darajaga kelsa-da, inson ko`zi o`zgarmaydi. Xuddi shu narsani qalb ko`zi bilan bog`laganlar. Hamda shoir - ijodkorlar tasaffuvda qalb ko`zini, basirat darajasi, komil inson ruhida takomillashtirgan.

Mumtoz she`riyatda “ko`z”ni ma`shuqa yorning yuz tuzilishidagi a`zosi sifatida ham ta`rif-tavsif beradilar. Va ko`zni fors - tojik she`riyatida ko`proq “chashm”, “nargis” istilohida kuzatamiz. Turkiy she`riyatda esa, bir qator leksik sinonimiyani tashkil etadi. Bunda “ko`z” timsolining o`xshashlikka asoslanganiga guvohi bo`lamiz. Masalan: ”ko`z” jodu, qayiq, qiymoch, sadaf, baliq, ohu, (kiyik), battol, jon oluvchi, kabi.

Ma'lumki, Alisher Navoiygacha bo'lgan turkiy she'riyatda bir qancha ijod va ijodkor ahli qalam sohibi bo'lgan. Shunday ijod ahlidan bo'lmish Xorazmiy, O'to'y, Lutfiyalar lirikasi o'z davrining hayratiga sazovor bo'lganlar va mumtoz adabiyotimizdagi timsol va badiiy obrazlardan unumli foydalanib o'z ijodi ko'lamini boyitganlar. Xususan, ko'z timsoli ham ushbu ijodkorlar talqinida turlicha tasvir imkoniyatlariga ega bo'lgan. Shu bois ularning nazmi gavharlarida ko'z tasviriga birma-bir nazar tashlab o'tsak.

Ma'lumki, Navoiy yashab ijod etgan davrgacha bo'lgan adabiy muhitda Xorazmiyning ham ijodiyoti o'ziga xos namunalarni kashf etgandir. Buni biz uning turkiydagi "noma" janriga asos solganida ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Uning "Muhabbatnoma" asarida ko'z tasviri va u bilan bog'liq san'atlarning yuqori ko'rinishiga guvoh bo'lamiz. Xorazmiyning ko'z tasviri bilan bog'liq baytlari mazmun – mohiyatiga nazar tashlasak, benihoya sodda, turkona tilda yaratilgani va ma'shuqaning asl go'zalligi kuylanganini ko'ramiz. Buning uchun esa boshqa timsollar yordamga kelganiga ham duch kelamiz. Darvoqe, Xorazmiy ham turkiy nazmda benazr bo'lgan obrazlar va timsollardan unumli foydalanib, o'zining "Muhabbatnoma"si shuhratini oshirgan.

Xuddi shunday, ko'z timsoli ifodalagan majoziy, diniy-ilohiy ishq mavzusi yetakchilik qilgan misollarni keltirgan.

Ko'ngil shirin so'zingga bo'ldi Farhod,

Ko'zing Kashmir jodusiga ustod.

Xorazmiyning ushbu keltirilgan baytida talmeh san'ati qo'llagan. Bizga ma'lumki, sehr- joduning vatani Kashmirdir. Ko'z shunchalar sehrlovchi ekanki, uning jodusi hatto, Kashmir sehridan ham o'tkirroq. Shuningdek, bu yerda so'zni–Shiringa, ko'ngulni –Farhodga o'xshatib, so'z o'yini iyyomdan

unumli foydalangan. Lirik qahramonning ko`ngli yorning shirin so`ziga oshiq bo`lganini etirof etadi.

Quyida keltirilgan baytda tashbeh san`atini qo`llagan holda ko`z va kiprik timsollari birga kelgan.

Urur nargislaring novakni jong`a,

Kular chehrang chechaktek arg`uvong`a.

Sening nargisday ko`zlaring jonimga ayamasdan o`qlarini otadi, chehrang esa arg`uvon gulidek qizarib kulib turadi. Ma`shuqa shunchalar mag`urki, o`z yoriga qilayotgan ozorlaridan uyalish o`rniga bu ishidan chechaktek yayrab-yashnab kulib turadi.

Ko`ngulning qoni qaynab barcha toshqay,

Ko`zumning yoshidan kavsar buloshqay.

Ushbu misralarda Xorazmiy mubolag`a san`atidan foydalangan. Ko`rinadiki, hijronda qolgan oshiqning ko`ngli qaynab toshib boryapti. Natijada uning ko`zidagi yoshning mo`lligidan Kavsardek toza suv ham bulg`anib loyqalanmoqda. Lirik qahramonning ishq shu darajada kuchliki, Kavsar suvini ham loyqalashga majbur bo`layotgani, ijodkor shaxsi oshiq qayg`usini bo`rttirib yuborayotganidan darakdir.

Qaro qoshingda yuz ming fitnalar bor,

Ko`zing ohusi arslonlarni ovlar.

Keltirilgan misralarda ijodkor qosh va ko`zning xususiyatlarini aytib o`tadi. Bunda mahbubaning qaro qoshlarida ming-ming fitnalar bisyorligidan ohudek chiroyli ko`zlarga ham hiylani o`rgatadi. Natijada u ko`zlari bilan arslonlarni ham ovlashga, mahv etishga chog`lanib, shaydolarini ko`paytiradi. Bu yerda mahbubaning ko`zi shunday ovchiki, ohu arslonning emas, arslon ohuning tuzog`iga ilinsa.

Otoyi gʻazallaridagi lirik qahramon, avvalo, oshiqdir. U goh ilohni sevadi, goh komil insonni madh etadi, goh tabiat va jamiyatga munosabat bildiradi, goh goʻzallikka oshufta boʻlsa, goh falak, hijron, agʻyor jafosidan faryod qiladi. U goh goʻzal mashuqaning vasliga vosil boʻlmoq uchun talpinadi. Shoir sheʼriyatida koʻz timsoli ruhiy ehtiyoj, hayotiy muammolar, yashash mohiyati va shunga oʻxshash masalalar xususida soʻz yuritadi. Shuningdek, inson va uning goʻzalligini, oʻzligini anglashga, hayotdan zavqlanishga chorlaydi. Shu bilan birga shoirning koʻz orqali din va tasavvufga doir bayt va gʻazallari ham diqqatga sazovordir.

Otoiy gʻazallarida “koʻz” timsoli va yorning tashqi qiyofasi, husni bilan bogʻliq baʼzi obraz va badiiy sanʼatlar borki, ular qayta-qayta kuzatiladi. Ular ham majoziy, ham tasavvufiy maʼno tashuvchidir. Takrorlanib turuvchi bunday poetik obraz va sanʼatlarda anʼanaviylik ustun boʻlsa-da, shoir ularga ijodiy yondoshadi. Mahbubaning har bir uzvi istiora, sifatlash bilan tilga olinadi, yoki biror-bir narsaga tashbeh va qiyos etiladi. “Xususan, KOʻZ-qiy moch, jodu, ohu, choʻlpon, jayron, kuffor, xaybar, nargis, sohir; KIPRIK-cherik, lashkar, nishtar, oʻq; QOVOQ - muqashshar, (poʻsti archilgan) bodom; QOSH – kamon, hilol, yoy, olmos, xanjar, qavsi quzah, Kaʼbaning mehrobi, toqi Qisro; SOCH, ZULF-ganj ustida yotgan ilon, kamand, qattol, dom, sunbul, zanjir, Sulaymon lashkari, hindu, jim harfi; XAT –xizri farruxpay, sabzai chashmai hayvon, jon sahfasiga yozilgan yozuv; XOL-oshiqni tuzoqqa ilintiruvchi dona, hindu, qalamdan sachragan tomchi, nuqtai anbar, fulful kabilarga, shuningdek, ogʻiz, yuz, zaxandon, gʻabgʻaba, lab, bel, koʻngul, qad, yanogʻ timsolarini ham oʻzgacha tasvir etadi.”⁶

Shoirning har bir gʻazali aslida insonda komillik va oriflik fazilatlarini tarbiyalash, voyaga yetkazish yoʻlidagi bir vositadir. Otoiy lirikasida “koʻz” timsoli tasavvufiy-falsafiy, ilohiy-irfoniy mazmunda ifoda etilgan:

⁶ Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. -Т.: Фан, 1995-й 78-бет

Piri mug`on adoqining to`zini ko`zga surma qil,

Ko`z bu yurishdin ochilur, bil muni ayni maslahat.

Ma`naviy rahbar bo`lgan piri murid ezozlashi, unga buyuk hurmat oqlashi, ehtirom ko`rsatishi kerak. Shuning bilan birga har bir yo`l-yo`riq va ko`rsatmasini og`ishmay bajarishi shart.

“Piri mug`on – o`tgacha cho`qinuvchilar, otashparastlar boshlig`i, rahbari, majozan mayxonachi. Bu baytda esa piri mug`on tasavvufiy ma`noda qo`llangan. Tasavvufda piri mug`on – komil inson va ruhoniyl rahbardir. Boshqa o`rinda mayfurush, may sotuvchi ma`nosida keladi. Bunda adoq – oyoq, to`z – chang, g`ubordir. Ya`ni murid pirga shu darajada etiqod qo`yishi kerakki, hatto uning bosgan izini ko`ziga surma qilishi kerak. Ana shundagina ma`rifat ko`zi ochiladi va ilohiy haqiqat sirlaridan voqif bo`ladi. Bu baytda ko`z timsoli “marifat ko`zi” ma`nosida tasavvufiy talqinga egadir.”⁷

Otoyi g`azallarida ko`z timsoli, ayniqsa, majoziy ma`noda qo`llanganida biz badiiy san`atlarning beqiyos namunasini ko`rishimiz mumkin.

Oy yuzung shavqinda tunlar to sahargah o`lturub,

Yondurub ko`z mash`alin, yoshtin quyarmen yog`lar.

Intizor oshiq sahargacha yorning oy yuzini ko`rolmay, qo`msab, uxlamay o`tirib chiqadi. U visol ilinjida barcha mashaqqatni tortishga tayyor. Tunning intihosi sahar bo`lganidek, hijronning oxiri visol bo`ladi. Yor diydoridan lazzatlanishga qattiq umid qilgan oshiq har qanday iztirobli damlarni boshdan kechirishga rozi. Shoir baytning birinchi misrasida lirik qahramon holatining umumiy ta`rifini, tashqi bayonini chizadi. Ikkinchi misrasida esa ruhiy, dardli holat manzarasi chiziladi.

⁷ Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Т.: Фан, 1995-й 49-бет

Xuddi shunday mash`alaga qancha ko`p yog` quyilsa, u tunni shuncha ko`p ravshan qiladi. Oshiq ham ko`z mash`alasiga go`yo ko`z yoshidan yog` quyib, sahargacha tunni bedor o`tkazadi, ya`ni doimiy yig`i, birinchidan, uni uxlashiga imkon bermaydi. Ikkinchidan, qorong`uda yo`lovchiga mash`ala hamroh bo`lganidek, ko`z yoshi uning yagona hamdami, ovunchog`i.

Ushbu baytda tanosub hosil qilgan so`zlarning birinchi guruhiga oy, tun, sahar; ikkinchi guruhiga oshiq, yuz, ko`z, yosh; uchinchi guruhiga mash`ala, yog` so`zlari misol bo`ladi. Shu bilan birga bu obrazlar o`rtasida o`zaro munosabatlar, o`xshash sifatlar ko`p. Jumladan, oy bilan yuz (oqlik, ravshanlikda), tun bilan ko`z (qoralik)da, ko`z yoshi bilan sahar (sofliq, beg`uborlikda)gi kabilar.

Otoiy bag`rini ko`ngli-yu ko`zi,

Tutarlar goh o`tda, goh suvda.

Quyida keltirilgan baytda ko`ngilning xususiyati, hissiy xossalaridan biri – kuymoqdir. Shuning uchun unda o`tning nisbati bor. Ko`z esa o`zidan suv (yosh) oqizadi. Shu sabab shoir bag`ri ishqdan o`rtanganda ko`ngli kuyadi va bu ishqning hasratini ko`z o`zining ashklari bilan haydashga urinadi.

La`lingni maqbul ayladi gul ko`zingkim,

Turk onlida bir hinduyi cholok keraktur.

Shoir chiroyli, o`ynoqi qora ko`zni chaqqon, kelishgan qora hinduga o`xshatmoqda. Shu bilan birga tildan chiqayotgan so`zni ko`z ilg`agan holda itoat etgan oshiq holatiga ham qiyos etish mumkin.

Otoiy ko`z timsolining ma`no–mohiyatini to`liq anglagan holda kuchli mubolag`ali tasvirlarni keltiradi:

Firoqingda ko`zum sarchashmasindin,

Qilurman har qayon boqsam tengizlar.

Mahbub ma'shuqaning hajr – firoqida shunchalar qiynoqda qolganidan ko'zidagi ko'z yoshlaridan chashma hosil bo'ldi va ko'z har qayonki boqsa, dengiz yasashi mumkin bo'lib qoldi. Yoki:

Bo'ldi daryo ko'z yoshim hajringda bir vasling sari,

G'ari lutfung kim kechirgay ushbu daryodin meni.

Otoiy g'azallaridagi ba'zi baytlarning mag'zini chaqish uchun shu baytda qo'llangan nomlar va u bilan bog'liq voqealarni bilish kerak.

Ikki ko'zikim, sehr iladur Somiri soni,

Har go'shada bor zulfi bikin yuz nigaroni.

Yuqoridagi baytning birinchi misrasida shoir yorning maftunkor ko'zlarini Somiriy degan sehgarning sehriga o'xshash, fitnakor va oshiqnlarni yo'ldan chiqaruvchi xususiyatga ega ekanligini uqdirmoqda.

Chohi Bobiltek qilib g'am go'shasin sohir ko'zing,

Sheva birla muftalo qildi ko'ngul Horutini.

Bu baytda ham g'am go'shasini ixtiyor qilgan ma'shuqning sehrli ko'zlari chohi Bobilga, oshiqning unga band bo'lgan ko'ngli shu chohga osib qo'yilgan Horut degan farishtaga o'xshatilyapti. Demak, bu o'rinda shoir Horut va Morut degan farishtalar va ular bilan bog'liq voqealarga ishora qiladi va ko'zni sehgariqlik qilishini yana bir dalilini ana shu voqealarga bog'laydi.

“Mumtoz adabiyotimizda yana shunday ijodkor siymo borki, bu Mavlono Lutfiydir. Lutfiy lirik asarlari markazida ham yuksak ijobiy ideallar egasi - oshiq va uning sevgilisi, mahbuba turadi. Oshiq oddiy kishiga xos fikr va xayol egasi sifatida boy ruhiy olam bilan yashaydi. U yer yuzidagi barcha ezguliklarga ochiqdan ochiq muhabbat e'lon qiladi, “u dunyo” mushohadasi, real hayot muhokamasida ko'z o'ngida mavjud bo'lib turgan

naqd imkoniyatlardan bahramand bo'lishga harakat qiladi. Uning uchun tabiat og'ushida yetilgan ohu ko'zli, guli xandon dilbar ham ma'nan, ham tashqi latofati bilan maftunkor dildor har narsadan ustundir. Ayniqsa, u ohu ko'zlari ila jonni o'rtasa, undan ajib hayot inomi yo'qdir.”⁸

Boshqa ijodkorlar qatori Lutfiy ham o'z ijodida badiiy timsollardan unumli foydalangan. Xususan, ko'z timsoli uning ijodida ham yorqin va namunali baytlarni tashkil etadi. Masalan,

Qachonki g'amzasi ko'z qonima, qaro qilsa,

Xatosiz o'qni urar jonima xato qilsa.⁹

Baytda ko'z va kiprik timsollari orqali tazod san'ati hosil qilinganini ko'rishimiz mumkin. Yorning g'amzasi, ya'ni noz va ishvalari shu qadar kuchliki, u oshiqqa qarolik, (yomonlik) sog'inadi. Ma'shuqaning qarashlari kiprikda jam bo'lib, ko'zga tomon otiladi va natijada ko'z jarohat olib, qon bo'ladi. Shu bois, mahbubaning xato qilmasdan, xatosiz o'qlarni yori tomon otganida oshiq ko'zlari visol ilinjida qon bo'lganiga guvohi bo'lamiz.

Usruk ko'zing ashkolina har gah nazar etsam,

Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.

Yaqub bikin xo'p yig'ladi qolmadi sensizin,

Nuri basarim xoh inon, xoh inonma.

Oy yuzingga ko'z solg'ali o'zga kishi birla,

Yo'qtur nazarim xoh inon, xoh inonma.

Lutfiyning mashur “Xoh inon, xoh inonma” radifli g'azalining to'rtinchi misrasida oshiq mahbubasining “usruk”, ya'ni mast, xumor

⁸ Lutfiy. Sensan sevarim. –T.: Fafur Fulom nomiдаги Адабиёт ва санъат, 1987-й. 6-7б.

⁹ Lutfiy. Sensan sevarim. –T.: Fafur Fulom nomiдаги Адабиёт ва санъат, 1987-й. 12-б.

ko`zlariga nazari tushishi bilan xabari qolmasligini ta`kidlaydi. Shuningdek, mast va xumor ko`zlar xoh ishoning, xoh ishonmang, har qanday kishini o`ziga rom eta bilishiga ishora qilinmoqda. Keyingi misralarda esa talmeh san`ati ishlatilgan. Dinimiz tarixidan biz yaxshi bilamizki, o`g`li Yusufdan ayrilgani uchun ko`p yig`layverganidan Yaqub payg`ambarning ko`zlari ko`r bo`lib qoladi. Bu esa mumtoz she`riyatimizda ko`p bor tilga olinadigan, ishora qilinadigan talmehlardan biri hisoblanadi. Lirik qahramon yori ishqida yig`layverib, ko`zdan qolganini aytish uchun shu tasvirdan foydalanadi. Albatta, shoirning ushbu baytdagi mazmunda biz ko`z timsolining diniy talqiniga guvoh bo`lamiz. Keyingi misralarda ko`z va yuz timsoli mutanosblikda qo`llangan. Shuningdek, “ko`z” bu yerda fe`l so`z turkumi o`nida kelib, “ko`z solmoq” iborasida ishlatilgan.

Lutfiyning ba`zi bir g`azallari boshdan oyoq ko`z tasviri bilan bog`liq ekanini ko`rishimiz mumkin bo`ladi. Bunga “Ayoqingg`a tushar har lahza gisu” deb boshlanuvchi g`azali misol bo`la oladi.

Tuturmen ko`zki, ko`rsam orazingni,

Ki derlar: “Oqqan arqqa oqar su(v)”.

Yuzingni tuttum ortuq oy-u kundin,

“Kishining ko`zidur, ore, tarozu”.

Ko`zing qonimdin iymalmas, ajabtur,-

Ki: “Qo`rqar, qaydakim qon ko`rsa hindu”.

Ma`lumki, ushbu baytda lirik qahramon yorning yuzini (orazini) ko`rishga ko`z tutayotgani aytiladi, axir, maqol bor-ku “Oqqan ariqqa oqar su(v)” degan. Bundan tashqari, “ko`z” timsolini fe`l o`rnida qo`llanayotganini kuzatish mumkin. Keyingi baytda esa yuz va ko`z timsoli birga qo`llangan. Shoir yuz tasvirini izchil davom ettiradi va yuzni Oy bilan

Quyoshdan ortiq deb ta'riflaydi. Chunki "Kishining ko'zi tarozi" degan maqol bor. Shu tariqa bu baytda tasvir yuzdan benihoya ko'zga o'tib oladi. Lirik qahramonning yor ko'zi oshiq qonidan iymanmayotganiga, ya'ni qo'rqmayotganiga ajablanayotgani bejiz emas, axir "Hindi qayda qon ko'rsa, qo'rqadi" degan maqol bor. Bu yerda "ko'zing hindi" deyilayotgani yo'q, lekin ko'z tasviri bilan maqolda "hindi" so'zi kelishi zimdan shuni yuzaga chiqargan.

Ko'rinib turibdiki, Lutfiy bu g'azalida badiiy san'atlardan benihoya o'rinli foydalangan. Shu bilan birga, muallif ushbu g'azalini tamoman o'zbek xalq maqollari asosiga qurgan. Har bir baytda shoir maqol qo'llab, ko'z va yuz tasvirini izchil ta'riflaydi.

Ko'zingtek, kezguchi ayyora yo'qtur,

Qoshingtek, bir pari makkora yo'qtur.

Shoir bu yerda ko'zning ayorraligi-yu, qoshning makkoraligi-ga ishora qilmoqda. Ko'zning ayyorligini biz uning har tomon boqib, turli fitnalar boshlashida ko'ramiz. Shoir ko'z kabi bu ishni eplaydigan boshqa ayyora yo'qligini ta'kidlaydi.

Qosh egri shaklda ekanligi uchun ham makkoraga o'xshatiladi. Negaki, uning qiladigan ishi faqatgina odamlarni aldab, hushini o'g'irlashdir. Tabiiyki, qosh pariga ham qiyos etiladi. O'z o'rnida mahbuba ham ma'shuqqa qayrilma qoshlarini qoqib, uni o'ziga rom etadi.

Mavloni Lutfiy ham ko'z tasvirini quyidagi o'xshatishlarda namoyon etadi: dur, ravshan, sadaf, sehrigar, jodu, jallod, hindu, kofir, qiymoch, ayyora, makkora, Xo'tan kiyigi, cho'lpon, Yaqub payg'ambar, mast, xumor va boshqalarga.

Alisher Navoiy she'riyatiga nazar tashlar ekanmiz, unda rang-barang tasvirlarga duch kelamiz. Inchinun, bunday tasvirlada tasavvufiy –

falsafiy dunyoqarashlar ham kuzatiladi. Ko`zning bu tasvirlarda ishtirok etishi mazmunning yuqori ko`rinishlaridan biri hisoblanadi. “Ko`z” timsolning botiniy aksi zahirida tasavvufiy qarashlar yuzaga kelganini ko`rishimiz mumkin.

Garchi qotil ko`zidin o`lsa tirik

Tirilur no`shi labidin ham o`luk.

Agar ko`z qotillik qilib, tirikni o`ldursa, lab esa jonbaxsh xususiyati sabab o`likni tiriltiradi. Oshiq mashuqasining qotil ko`zlaridan o`zini yo`qotgan bo`lsa, uning la`li labidan joni oro topadi. Ya`ni labning hayotbaxsh xususiyati tufayli o`likka jon ato etadi. So`fiyona talqinga rioya qilsak, lab-ma`naviyat olamidan malaklar vositasida anbiyo va oriflarga nozil bo`lib zavq va shavq ilhom paytida ular tilidan ko`ngliga ko`chadigan shirin kalom hisoblanadi. Sir-u asror va g`ayb ilmini o`rganayotgan so`fiylar ming bir qiyinchilikka duch keladi. Shu sabab ular labning shirin kalomi evaziga hayotga qaytishadi.

Alisher Navoiy she`riyatida ko`zning zulf timsoli bilan birga qo`llanilishida ham tasavvufiy talqinlarni kuzatish mumkin.

Bo`lmasa kofir ko`zing, oshuftasi shaydo ko`ngul,

Rishtayi zulfi anga, zunnor bo`lg`aymu edi.

Navoiy oshiq ko`ngli mashuqani kofir ko`zlarini oshuftasi bo`lmaganda edi, yor sochlarining rishtasi unga zunnor bo`larmidi, - deya ko`ngilning yor ko`zlariga oshiq bo`lganini bildiradi. Nega shunday, nega ko`ngul yor zulfi halqalariga ilinmay visolga yetishishi mumkin emas. Tassavvuf bo`yicha, soch-mavjud dunyo ramzi. Ya`ni Mutlaq ruh dunyoni yaratar ekan, unga o`z nurini taratib (tajalli etib) harakatga keltirgan, husn-u jamol bag`ishlagan. Dunyo-kasrat, ya`ni ko`plikni anglatadi. Bunda ilohning sifatlari mujassam. U shunday dunyoki, iloh manbasiga nisbatan qorong`u-roq va zulmatli. So`fiylar nazdida sochning uzunligi va qoraligi ham dunyoning bepayonligi va zulmatiga ishora. Sochning halqalari : solik ruhi

ovora band bo`ladigan dunyo tashvishlaridir. Sochning uchi esa, insonning o`zi. Boshqacha aytsak, inson tajalliyotining oxiridir. U asl manbaga qaytishga intiladi. Chunki u mutloqiyatdan ajralgan, hijronda. Lekin dunyo tashvishi zulmatni, xalqalarni yengmasdan turib, Mutlaq ruh jamoliga musharraf bo`lolmaydi. Bu baytda ko`ngil, ko`z va soch timsollari birga qo`llangan. Baytning mazmuni shu.

Erur ko`ngulda safo ishq toza dog`i bila,

Nechunki ko`zda yorug`liq erur qarog`i bila.

Ma`nosi: Ishqning dog`i yarasi tozarishidan ko`ngulda shodlik, surur va ravshanlik paydo bo`ldi. Zotan, bunga ajablanmaslik kerak, chunki ko`zning ravshanligi uning qorachug`idan umuman olganda, baytning mazmuni shunday. Biz bunda ajoyib tashbehga guvoh bo`lamiz: ko`z gavhari qora, ammo ko`rishning quvvati, yorug`lik o`shandan, demak ishq ko`ngilga dardu dog` solsa-da, lekin ko`ngil ko`zini ravshanlashtiradi, olamni musaffo nigoh bilan idrok etishga charog`i hidoyat bo`ladi. Navoiy shu tashbeh orqali tazod san`ting favqulodda yangi variantini kashf etgan va inson ruhidagi dramatism, qarama-qarshi holatlarni tushuntira olgan. Ishq-muhabbatdan forig` odam tinch, xotirjam yashashi kerak. Biroq hayotda buning aksi bo`ladi, muhabbatga giriftorlik, xursandchilik, farog`atga sabab bo`ladi. Ko`ngil bu darddan yayraydi! Shoir oqlik va qoralikni (baytda “safo” “toza” so`zlari ham o`zaro mutanosiblikka kirishib zavqli bir tuyg`u bag`ishlaydi), qullik va ozodlikni, ishqiy bezovtalik lazzati va ishqsizlik badbaxtligini qiyoslaydi, oshiqning tan azoblari evaziga tuyadigan ruhiy- ma`naviy huzurini olqishlaydi.

Ushbu baytda ham shoir ijodida ko`z timsolining tasavvufiy-falsafiy talqini qo`llangan o`rinlar kuzatiladi.

Barcha elga fitna bo`lg`on, ko`zga maftun bo`lmayin

Har kishi nazzora aylar, yuzni manzur etmayin.

Ya'ni "Barcha fitna-firib bilan aldagan ko'zga maftun bo'lmaslikka, (aldanmaslikka), barcha qaraydigan ko'zga qaramaslikka ahd qildim"- deydi. Barchani fitna-yu firib bilan aldayotgan ko'z-dunyo bo'lishi ham dunyo nafosati bilan boqqan Mutloq ruh chashmasi bo'lishi ham, yuz – ko'zidan nur yog'ilib turgan komil inson bo'lishi ham mumkin. Har holda mashuq ko'zi fitnakor, aldamchi, ekani aniq. U barchani oshufta etadi. Ishq aslida ana shu maftunkor yuz- ko'zga qarashdan boshlanadi. O'sha ko'zlarki, bechora oshiqni bir lahza tinch qo'ymaydi. Xo'sh agar yuz va ko'z ilohiy sifat tajalliyot belgisi bo'lsa, nega u maftunkor va aldamchi? Gap shundaki, mashuqa ko'zi basirat darajasi, ya'ni qalb ko'zining o'tkirligi, ayni vaqtda u oshiqni imtihon etuvchi, sinovdan o'tkazuvchi-kuch. Ilohiy jamol turli ko'rinishlarda jilolanib, qalbgga yo'l izlaydi. Ko'z - jilo, mavj, tovlanish, sehru-jodu maftunkorlikdir. Ko'z shu bilan birgalikda g'aybning manbai, sir-u asror yuz va fitnakor ko'zlardan bekinish ilohdan yuz o'g'irish bilan barobardir. Yaxshisi ishq olovida kuyish nasib etsin, jodu ko'zlardan ayirmasin chashmasidir. Baytda yuz-u ko'z ilohiyot jamoli timsoli va komil inson chashmasi.

Navoiyning "Jong'a chun dermen " deb boshlanuvchi g'azalida ham "ko'z" mashuqani ko'rish tufayli oshiqning butun taniga jabr yetkazishini talqin qilishimiz mumkin.

Ko'nglum qilsam g'azab, ayturki: "Ko'zdindur gunah,
Ko'rmayin ul tushmadi bizga bu ishning tuhmati".
Ko'zga chun dermenki: "Ey tardomani yuzi qaro,
Sendin o'lmish telba ko'nglumning balovu vahshati!"
Yig'lab aytur ko'zki: "Yo'q erdi mango ham ixtiyor,
Kim ko'rindi nogahon ul sho'hi mahvash tal'ati".

Birinchi baytda shunday deyiladi: Achchiqlanib ko'nglimni so'roqqa tutsam, shunday deydi: "Bu ko'zning aybi, agar u jononni ko'rmaganda edi,

bizga bu ishning gunohi tushmagan bo'lar edi". Ko'zga: "Ey buzuc axloqli, yuzi qora, telba ko'nglum boshiga tushgan balo va uning dahshatli qo'rquvi sendin ekan", deb g'azab qilsam, (Ko'z) yig'lab aytdiki: "Meda ham ixtiyor yo'q edi, to'satdan oy yuzli sho'xning yuzi ko'rinib qoldi". Xullas, jon jismning kasalikka uchrab qolganini aytadi, shundan keyin jismga savol berilganda, jism bag'irdagi olovning haroratini sabab qilib ko'rsatadi. O'z navbatida bag'ir ko'nguldagi ishq chaqmog'ining shulasi menga tegdi. Natijada shu ofatga giriftor bo'ldim, deydi. Ko'ngil esa ko'zni aybdor qilib ko'rsatadi. Lekin ko'zda ham ayb yo'q edi, zero "ul sho'hi mahvash" yuz ko'rsatganda ko'z beixtiyor unga qaragan edi.

Ya'ni ishqning inson a'zolari, ko'ngli, butun vujudini qamrab olishga sabab husnning jilva qilishi edi. Bu go'zal mahbub ilohiy tajalli ekani aniq. Shu nur, shu ohanrabo ziyo pok qalblarga joylashib olgach, ularning qon tomirlarida oqa boshlaydi, hislari fikr-o'yi, ruhiyatni butkul band etadi va oshiq Husnning mazharidan manbaiga qarab borish, unga yetishish yo'lida o'rtanaveradi. Shuningdek, bu ilohiy ishqni inson a'zolari orqali yoritilishi ham bejizga emas. Bu yerda ko'z ham ishq ilohiyini yuzaga chiqaruvchi vositalardan biri hisoblanadi. Zero, Alisher Navoiy uchun mazhar muhabbati ham ("majoziy muhabbat"), manba muhabbati ("ishqi haqiqiy") bir vaqtning o'zida nazarda tutilgan, shoir bu ikki tushunchani bir-biriga zid qo'ymaydi, ammo ular orasidagi farqni ham inkor etmaydi.

Netti jon topsam visolingdin labingning xolidek,

Ko'zu zulfingdin necha mastu parishoning bo'lay.

Baytning e'tiborli tomoni shundaki, ko'z - lab, xol, zulf timsollari birgalikda ilohiylikni vujudga keltirgan. Oshiq yor labidagi xolga havasi keladi, chunki u vasl og'ushida - Yor bilan birga. Qaniydi men ham shu xol kabi visoldan jon topsam, yayrasam, murodimga yetsam, holbuki men Yor ko'zidan mast, zulfiday parishon Holman, deydi oshiq. Xol- aslida tasavvufda vahdat nuqtasi, ya'ni zohiriy olam mushohadasi orqali kulliyotga yetish,

Alloh jamoli mohiyatini idrok etishga ishora. Biroq bu g'azalda xolning ushbu ma'nosi bilan real insoniy go'zallik belgisi sifatidagi mazmuni birlashgan. Boshqacha aytganda, reallik va ramziylik, ilohiy ma'no dunyoviy ma'no bilan birlashgandir. Shu bois oshiq xol bo'lgisi keladi. Ya'ni Yor vasliga yetib, vahdatni isbotlashga chog'lanadi. Ko'zning oshiqni mast qilishi uning jonon jamolining ayonlashuvi - ko'rinishidan behudu behush bo'lishiga ishoradir. Umuman, ko'z insonning mohiyatini aks ettiradi va kishining kishiga ta'siri ham ko'z orqali kechadi. Shu bois, mashuqa ko'zi oshiq dilini rom etuvchi qudratga ega. Zulf esa parishonlik va hijron ramzi. Zulf oshiqlarning yuzini berkitadi (yuz-mohiyat, manba bo'lsa, zulf, sochuni yopuvchi parda). Zulf moddiy dunyo kasratiga ham ishora etadi. Dunyo esa parishonlik, hijron, iztirob joyi. Dunyoni to'la zabt etib, anglab, yuzini ochgan darvesh Haqqa yetadi.

Qaro ko'zum, keli mardumlik edi fan qilg'il,

Ko'zum qarosig'a mardum kibi vatan qilg'il.

Shunday qilib, baytning mazmuni: "qora ko'zlugim (go'zal yorim), kel endi, odamiylik muruvvatini rasm qilgin (o'rganib ol); ko'zimning qorachig'iga (gavhariga) gahar (qorachig') kabi o'rashgin (maskan tut)" Alhosil: "qora ko'zligim, kelginda, lutf-shafqat, vafo rasmini tuz (vafoli bo'l), men uchun sen ko'z qorahig'iday azizsan, joying ko'zim ichida".

Bunday baytlar klassik tanqidchilikda shoirlik mahoratining baland namunasi - husni matla' (shoh bayt) deb baholangan.

Erur ko'ngulda safo ishq toza dog'i bila

Nechukka ko'zda yorug'lik erur qarog'i bila.

Ishqning dog'i-dardu alami, asorati tamg'a yarasi tozarishidan ko'ngilda shodlik, surur va ravshanlik paydo bo'ldi. Zotan, bunga ajablanmaslik kerak, chunki ko'zning ravshanligi uning qorachug'idan. Umuman olganda baytning mazmuni shunday. Ajoyib tashbeh: ko'z gavhari qora, ammo ko'rishning

quvvati, yorug`lik o`shandan, demak ishq ko`ngilga dardu dog` solsa-da, lekin ko`ngil ko`zini ravshanlashtirmadi. Olamni musaffo nigoh bilan idrok etishga charog`i hidoyat bo`ladi. Navoiy shu tashbeh orqali tazod san`ting favqulodda zo`r variantini kashf etgan. Va inson ruhidagi dramatizm, qarama-qarshi holatlarni tushuntira olgan: ishq-muhabbatdan forig` odam tinch, xotirjam yashashi kerak. Biroq hayotda buning aksi sodir bo`ladi, muhabbat dardiga giriftolik, xursandchilik, farog`atga sabab bo`ladi. Ko`ngil bu darddan yayraydi! Shoir oqlik va qoralikni, qullik va ozodlikni, ishqiy bezovtalik lazzati va ishqsizlik badbaxtligini qiyoslaydi, demak, bunday qullikdan xursand bo`lish kerak. Shuning uchun ham oshiq mahbubasining tamg`asini ko`nglida asrab, unga qul bo`lishdan ko`ngli osmonda . ishqning farag` va farog`at, safo va ro`shnolik keltirish xosiyatini shunday ajoyib orginal toza tasvir bilan ifodalagan .

“Ma`lumki ko`z va kiprik timsollari birgalikda qo`llanganda ham turli ma`no mutanosibligiga erishadi. Ushbu baytda esa ayricha holatni kuzatamiz. Ya`ni kiprik ko`z timsoli o`rnida qo`llanib, tasavvufiy ma`nolarni ifodalaydi.

Firoq shomi yengilmas o`qung ko`ngul yo`lini,

Ki borur sari paykondin charog`i bila.”¹⁰

Birinchi baytdagi qorong`u -yorug` tazodi davom ettirilgan, ammo ma`no boshqa. Birinchi baytdagi tashbeh asoslari dog` va ko`z qorachug`i ijobiy ma`nodagi rang edi, aniqroq qilib aytsak, bu qoraliklar ochiqlik, ravshanlik keltiradigan edi, firoq shomi esa oshiq uchun yorug`lik emas, azob-iztirob olib keladi. Oshiqning hijrondagi kunlari tun bilan barobar. Hijronda oshiq uchun yorug`lik yo`q, uning tongi zim-ziyo, quyoshi mahv etilgan. Firoq shomida , deydi shoir, mashuqqa qarab, o`qing (kipriging) ko`ngim yo`lini adashmasdan topadi, chunki u ko`ngilga tomon chirog`i bilan kelyapti. Nimaga ishora bor bu yerda? Gap shundaki, “paykon” so`zi

¹⁰ Комилов Н. Тасаввуф. -Т.: Мовароуннахр – Ўзбекистон, 2009. 221-222-бет.

ham o`qni bildiradi. Lekin bu yerda kamon oqi nazarda tutilayapti. Kamon o`qining o`tkir uchi esa metaldan yasalardi va u nishonga qarab uchib borayotganda metal qismi yaraqlab turar, ba`zan esa olov sochayotganday, shula`lanib ko`zga tashlanadi. O`qning ana shu holatini Alisher Navoiy chiroq ko`tarib borayotgan odamga o`xshatib, jonli va chiroyli surat chizgan: “Firoq shomida, ya`ni sening yoding vaqtincha ko`ngildan ko`tarilib, duyo ish-tashvishi parda bo`lib meni sendan ajratganda, o`qing adashmasdan ko`ngil yo`lini topadi, zero u oz nishoniga paykonni chiroq qilib borayapti”. Bunday tashbehni hech qaysi bir shoirda uchratmaymiz: yorning kiprigi- zulmatni yoritib borayotgan mash`ala, go`yo zim-ziyo tunda chaqilgan chaqmoqday. “Albatta, mashuqa kiprigini chaqmoqqa tashbeh berganda Navoiy ko`zni nazarda tutgan, chunki aslida kiprik birovga qaratib otilmaydi, balki nazar, qarash yo`naladi, ya`ni ko`zning nuri, energiyasi ta`sir etadi, joziba, kuch bag`ishlaydi Oddiy hayotda ham qalb kitobi bo`lmish ko`zlarning ko`ngillarni bog`lashi, sevgiga zamin hozirlashi ko`p uchraydigan hodisa.”¹¹

Ma`lum bo`lishicha, mumtoz she`riyatda bodom timsoli nafaqat ko`zga o`xshash bo`lgani uchun ta`rif va tavsif etiladi. Balki tassavvufiy ma`nolari bo`lganligi bois ham ko`z timsoli bilan birga qo`llanadi.

Ne uchun bazmi visol ichinda ichmay bodakim,

Ko`ziyu og`zi bukun bodomu shakkardur manga.

Ushbu misralarning majoziy mazmuni quyidagicha: Nega endi visol bazmida boda ichmay, axir uning bodomday ko`ziyu shakkarday shirin og`zidan lazzatlanish baxtiga erishdim. Bu she`rda ko`z, boda, bodom, og`iz kabi timsollar qo`langaniga guvoh bo`lamiz. Ilohiy- irfoniy ma`noda boda- ishqdir va ishq orqali ilohiy kashflar, g`alabalarga erishishni bildiradi. Navoiy shu bois g`azal maqtasida ham shuncha sarxush va shodmanki, yor vasliga yetdimmi-bilmay turibman, balki bu holatim tasviri bir xayoldir yoki butun olam meniki bo`ldimikin, degan fikrni bildiradi.

¹¹ Комилов Н. Маънолар оламига сафар. -Т.: Тамаддун, 2012-й. 211-212 б.

Shunday qilib har bir kishi nigohi va fikri miqdorigacha g`aybni ham ko`radi, kelajakni ham, yaxshini ham ko`radi, yomonni ham. Ko`zning oldi - ortida bir parda qolmadimi, butun dunyo tep-tekis bo`ladi, ko`z g`ayb lavhini o`qiydi. Ko`zingni ortga burdingmi, hayot boshlangan paytdan boshlab bo`lib o`tgan mojarolar, dunyoning yaratilishi ko`ziga ko`rinadi! Har bir kishi ko`nglining ravshanligi nisbatida g`aybni ko`radi. Kim ko`nglini ko`proq jilolagan bo`lsa, ko`proq ko`radi.

Yuqoridagi misollar va baytlardan ham ko`rinib turibdiki, Navoiy nazmiyotining ko`pchilik qismi ilohiy – irfoniy mazmunda kechgan. Zero, taniqli navoiyshunos olim R.Vohidov aytganidek: “Alisher Navoiy va ilohiyot egizak tushunchalar, ularni ayri-ayri talqin etish gunohdir”.¹²

¹² Вохидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: “Бухоро” 1994, 141-бет.

2-bob. Ma'shuqa xarakteri talqinidagi noan'anaviy usullar

She'riyatda lirik qahramon tushunchasi mavjud. Mumtoz adabiyotimizda lirik qahramon deganda, asosan, oshiq nazarda tutiladi. Ayni paytda, u bilan yondosh tarzda yor obrazi ham qayd etiladi. Bular ham o'ziga xos an'anaviylik kasb etgan. A. Hayitmetov "an'anaviy obrazlar" xususida so'z yuritarkan, ularni ikki tushuncha doirasida o'rganishni ma'qul topadi: "An'anaviy obrazlar deganda o'zbek mumtoz she'riyatidagi ko'pchilikka ma'lum va mashxur bo'lgan, ko'p marotaba takrorlanib turuvchi, o'tmishda aksariyat shoirlarning mulki hisoblangan an'anaviy badiiy tashbehlarni ham tushunamiz".¹³ Gap bu yerda shoirlarimiz tomonidan yorga, uning qaddi, yuzi, sochi, og'zi, labi, ko'zi, xoli va boshqa a'zolari haqida bormoqda. "An'anaviy obrazlar – badiiy adabiyotda bir ijodkordan ikkinchi ijodkorga o'tib yuruvchi, ko'pchilikka tanish bo'lgan qahramonlar obrazlaridir. Bunday qahramonlar qachonlardir adabiyotga kirib kelgan va qattiq o'mashib qolgan obrazlar bo'lib, har bir shoir uni qalamga olarkan ekan, yangi xususiyatlar bilan boyitadi."¹⁴

"An'anaviy obraz" atamasini asoslovchi, ularning ta'rifiga mos keladigan belgilar mavjud:

1. "An'anaviy obraz" deganda, adabiyoti madaniyati bir-biriga yaqin, til va hududiy o'zaro bog'liqlikka ega turli xalqlar adabiyotida ko'zga tashlanadigan obrazlarni nazarda tutish.
2. "An'anaviy obrazlar" sirasiga kiruvchi timsollardan deyarli barcha soha kishisi yoki adabiyotga daxli bo'lmagan kishilar birdek xabardor bo'lishi.
3. Har bir obraz xalq orasida, xalq og'zaki ijodi asarlari yoki yozma adabiyotda doimo o'ziga taalluqli yetakchi belgilari bilan namoyon bo'lishi.

¹³ Хайитметов А. Адабий меросимиз уфклари. –Тошкент: Шарк, 1997. 209-210-бетлар.

¹⁴ Ўша асар. 208-209-бетлар.

4. Sharq mumtoz adabiyoti – fors-tojik, arab, turkiy adabiyot vakillarining deyarli barchasi asarlarida uchrashi.
5. An'anaviy obrazlar shaklan turlicha bo'lishidan qat'i nazar, poetic funksiyai jihatdan umumiy yaxlitlik kasb etishi – asosiy maqsad va mohiyatini yoritishda uzviylikka ega bo'lishi.¹⁵

O'zbek mumtoz adabiyoti ildizlari chuqur va teranligi bilan, diqqatga loyiqdir. Bu haqda Fitrat shunday degan edi: “Sharq adabiyotining hashamatli, rangin bir tarixi bor. Bu dabdabali tarixning oldidan o'tganda bu kungi Ovro'pa adabiyoti ham shapkaini olib, salom berib o'tadur. Shunga o'zini majbur ko'radur”.

Mumtoz adabiyoti sehri jozibasini tushinish, undan zavq ola bilish inson ruhiyatini yuksaklarga ko'taradi. Uni ma'nan barkamol qiladi. Sho'ro siyosati bizni ana shu manbadan to'la bahramand bo'lishimizga imkon bermadi. Sho'ro adabiyotshunosligi mumtoz adabiyot vakillari ijodini o'z manfaatlariga moslab sharhladi. masalan, Mashrabning:

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq na kerak?

Ibrohimdan qolgan u eski do'konni na qilay?

bayti shunday sharhlanadi: “Mashrab mahbubani, ichkilikni makkadan ortiq ko'rmoqda. Ular bo'lmasa Ibrohimdan qolgan eski do'konni nima keragi bor?” Aslida esa Mashrab: “Gar qalbingda Alloh ishqini bo'lmasa, islom ta'limoti qalbingdan joy olmagan bo'lsa, Makkaga borishning hojati yo'q”, - demoqda edi.

Sho'ro adabiyotshunosligi mumtoz adabiyot namunalarini Qur'on va hadislardan uzilgan holda tahlil qildi. Oqibat mumtoz adabiyot o'quvchiga chala holda yetib bordi. Mumtoz adabiyot namunalarini Qur'on va hadislersiz tushinish va sharhlash mumkin emas.

¹⁵ Хўжаев Т. Навоий шериятидаги анъанавий образларнинг ғоявий-бадиий таснифи. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2010. № 5. 47-48-б.

Kamol Xo'jandiyning "Latofatnoma" asarida shunday bayt bor:

Zihi sultoni dorul mulki aflak

O'g'on berdi sana tashrifi "lavlak"

Baytdagi "lavlak" so'zi quyidagi hadisning qisqargan shaklidir: "Lavlaka laka xalak tup aflaka". Tarjimasi: Agarda sen bo'lmasang, men jannatni yaratmagan bo'lardim". Bu hadis mazmunisiz yuqoridagi baytni mutlaqo tushuntirib bo'lmaydi.

Mumtoz adabiyot namunalarini she'riy san'atlar tahlilisiz to'la tushunish va baholash mumkin emas.

Navoiyning mashhur bayti bor:

Furqatingda za'faron uzra to'karmen lolalar,

Lolalar ermaski bag'rimdin erur parvonalar.

Bayt mazmuni shunday: sendan ayriliqda sariq yuzim uzra ko'zimdan qon oqmoqda, yo'q ko'zimdan emas, yuragim parchalanib, uning qoni oqmoqda. Bayt mazmuniga ko'ra she'riy san'atlar qo'llanishini tahlil qilaylik. Zafaron so'zidan so'ng kelishi zarur bo'lgan "yuz" so'zining matnidan tushib qolib, uning xususiyati belgi bildiruvchi so'zga ko'chgani, ko'zdan qon oqdi deyish o'rniga lolalar to'kilmoqda deyilishi istiora san'atidir. "Qon" va "lola" ranglari mosligi tufayli tanosub san'ati hosil bo'lmoqda. Birinchi misralar "lolalar" so'zi bilan tugab, ikkinchi misra shu so'z bilan boshlanayotgani uchun tasbig' san'ati yuzaga kelgan. Ko'zdan yosh o'rniga qon oqishi esa mubolag'aning ig'roq shaklidir. Birinchi misrada ko'zdan qon oqmoqda deyilib, ikkinchi misrada bu fikrdan qaytib, yuragim parchalanib, uning qoni oqmoqda deyilishi ruju san'atidir. Baytda "i" undoshi takroridan tavze', "a", "i" unli harflari takroridan assonans san'ati paydo bo'lgan. Ko'rinadiki, Navoiy

bir baytda yettita she'riy san'at qo'llab, mazmunni go'zal ifoda qilishga erishgan.

Mumtoz adabiyotimiz milliy madaniyatimizning bir qismi sifatida sir-u sinoatlarga to'lib yotibdi. Ularni tushunish, anglash va boshqalarga ham yetkazish, shu orqali kishilar didini tarbiyalash muhim vazifalardan biridir.

Mumtoz adabiyotdagi ma'shuqa portreti tasviri bir olam ma'nolarga egadir. Xususan, mashuqaning belining ingichkaligi, og'zining kichikligi, yanog'ining qizilligi, ma'shuqaning xoli, uning labi ustidagi xoli, qoshining yoyligi, zulfining qoraligi, qaddining tikligi kabi sifatlari mumtoz adabiyot namoyondalarimiz tomonidan ta'rif-u tavsif etilgan.

Ma'shuqaning yuzi, qoshi, ko'zi, beli va qaddiga berilgan ta'riflarni ko'rib,
solishtirib o'tsak:

Xorazmiy "Muhabbatnoma"da dunyoviy sevgini kuyladi, husn-jamoli va aql-odobi bilan kishini maftun qiluvchi yorni ta'rif qildi, xassoslik bilan sevgining zavq-shavqini, visol shodligi va hijron iztirobini tasvirladi. Vafosiz va jafokor yorni tanqid qilib, yashagan muhitning ayrim illatlariga qarshi norozilik kayfiyatlarini ifodalaydi, tarkidunyochi shayx-zohidlarga qarshi kurashadi.

Pari ruxsorlarning ko'rka bo'yi,
Yuzing – Navro'z-i qoshing-bayram oyi.

Ma'shuqa – pari ruxsorlarning eng ko'rklisi. Uning yuzi – Navro'z. Navro'zning lugaviy ma'nosi "yangi kun", "kun" turkiy tilda quyoshning ma'nodoshi hisoblanadi. Demak, yorning yuzi quyosh, uning qoshi esa – bayram oyi. Bayram oyi deganda, Navro'z bayrami nazarda tutiladi. Ma'lumki, hamalning birinchi kuni yangi yilning boshi sifatida bayram qilinadi va "Navro'z bayrami" deb ataladi. Shu kuni hamal oyi boshlanishi bilan samoga yangi oy ko'rinadi. Yangi oy – hiloldir. Hilol qoshni eslatadi. Shoir ma'shuqa yuzini Navro'zga qiyoslamaganda edi, uning qoshini bayram oyiga tashbeh qilolmagan bo'lardi.

Ayo xurshiddek olam chirog`i

Munavvar chehranggiz firdavs bog`i.

Oshiq ma'shuqani quyoshga qiyoslamoqda. Quyosh ham o'z chiqishi bilan butun olamni charog'on qilgandek, ma'shuqa ham chehrasining nuri bilan olamni, firdavs bog'ini nurafshon va munavvar qilmoqda. Baytda tashbeh san'ati qo'llanmoqda.

Ayo bo'yi sanubar chehrasi oy,

Quyosh yangliq jamoling olamoroy.

Ushbu baytda ham yuqoridagidek ma'no anglash mumkin. Ma'shuqa bo'yi sanubarga, chehrasi oyga o'xshatilmoqda. Ma'shuqaning jamoli quyosh kabi olamga nur taratadi.

Xorazmiy ma'shuqaning belini juda ham nozik qilib ta'riflab, qilga o'xshatadi.

Bo'yung sarvu sanubartek, beling qil,

Vafo qilg'on kishilarga vafo qil

Oshiq ma'shuqaning go'zalligini shunday ta'riflaydiki, boyini sarv-sanobarga o'xshatsa, belini qildek deb juda go'zal ifodalay olgan. Oshiqning aytishicha, yor shunchalik go'zal bo'lsa ham biroq u vafosiz edi. Oshiq yorga o'ziga nisbatan adolatli bo'lishlikni talab qiladi. Ushbu baytda mubolag'a, tavze, tashbeh, takrir, sifatlash, tajnis kabi san'atlarni ko'rishimiz mumkin.

Seni ko'rgan o`zidin yot bo`lur,

Ruhingni ko`rsa, ming shah mot bo`lur,

Yorni shunchalik go'zal qilib ta'riflaydiki, uni bir martagina ko'rgan odam es-hushidan ajralib qoladi. Yor shunchalik go'zalki, uni ko'rgan odam xoh u shoh bo'lsin, xoh gado es-hushini yo`qotadi va xuddi shaxmat o`yinidagidek mot bo`lib ma'shuqaning asirasiga aylanib qoladi.

Ug‘on Yusuf jamolin sizga berdi,
Muhabbat kinyiyosin bizga berdi.

Bu misralarda oshiq tilidan quyidagi fikrlar bayon qilinadi. Olloh ma’shuqani yaratgan paytda uni shunday go‘zal qilib yaratdiki, dunyoning eng go‘zal insoni bo‘lgan Yusufga teng qildi. Yorning bunchalik go‘zalligini ko‘rgan oshiq esa unga bu ko‘rinmas ip bilan bog‘lanib qoladi. Bu o‘rinda oshiq shukronalik tuyg‘usini ham takidlab o‘tadi. Olloh oshiqqa muhabbat qiyofasini berganidan manmun va bu bilan faxrlanadi.

Xorazmiy ”Muhabbatnoma”sida bo‘lgani kabi Xo‘jandiyning ”Latofatnoma”sida ham muallif yaqqol, faol ishtirok etadi. Xorazmiy o‘z davrining adabiyot ixlosmandi bo‘lgan Muhammad Xo‘jabek taklifiga muvofiq ”Muhabbatnoma”ni yozishga kirishganini bayon etsa, Xo‘jandiy ”Latofatnoma”ning yozilish sabablari to‘g‘risida shunday deydi:

Tashakkurda turur ermish sahargoh,
Eshikdin bir juvon kirdi nogoh...
Firoq otishda bag‘ri pora bo‘lg‘on
Elindin ishq uchun ovvora bo‘lg‘an...
”Seni shoir deb ayturlar xaloyiq.
So‘zungdan tuhfa keltur bizga loyiq.
Tilarman sendin ey qoni malohat,
Ki bersang jonimga so‘z bilan rohat.
Muhabbat jomidan ichsang sharobe,
”Muhabbatnoma”ga aytsang javobe.

Xo‘jandiyning bu asarini yaratishda Xorazmiy izidan boradi, biroq uning yo‘lini takrorlamaydi. Zotan, so‘z san’atida hamma bir-birining shogirdi-yu, biroq har bir san’atkor o‘z ijodiy yo‘liga ega, bu o‘rinda ham shunday bo‘lgan. Garchi ”Latofatnoma” asarini yaratishda Xo‘jandiy Xorazmiy ”Muhabbatnoma”sidan ijodiy ilhomlangan bo‘lsa ham kompozitsiya, obrazlar talqini, tabiat manzaralarini yaratishda o‘ziga xoslikka erishadi.

Xo‘jandiyda ham asar xuddi Xorazmiydagi kabi oshiq nomidan ma’shuqaga qarata yozilgan nomalar asosiga qurilgan.

Xorazmiyda nomalar 10 ta bo‘lsa, Xo‘jandiyda ham 10 ta nomadan iborat. Bu haqda shoir shunday deydi:

Latofattin tilim handomo qo‘ydim
Aning otin ”Latofatnoma” qo‘ydum
Tilimda so‘z, elimda xoma bo‘ldi,
“Latofatnoma” ham o‘n noma bo‘ldi.

Xo‘jandiyning “Latofatnoma”sida ma’shuqaning qaddi alifga, qoshlari esa nun harfiga o‘xshatiladi.

Ayo, qaddi sanubar, chehrasi gul
Xati rayhon mengizlik zulfi sunbul
Aliftek togri boyliq qoshlarinun
Jahon Laylilari husnunga Majnun

Juda yuqori saviyada yozilgan quyidagi ishqiy baytlarda shoir o‘zining buyuk qalb sohibi uning yuragi esa tuganmas ijod maskani ekanligini yana bir ta’kidlab o‘tadi va ayni damda buni namoyon ham qila oldi. Shoirning aytishiga qaraganda, ma’shuqaning qaddi shunchalik go‘zal va to‘g‘riligidan uning bo‘yu bastini sanubarga, bo‘yining go‘zalligiga hamohang yorning yuzi ham insonni hayratga soladigan darajada go‘zal shuning uchun shoir o‘z ijodiy ishida yorning

go‘zalligini, yuzining chiroyini esa eng go‘zal gullarga qiyoslaydi. Shoir baytni davom ettirar ekan yorning go‘zalligini bir-bir sanab, uning tengini topib qovushtirib boraveradi. Oshiqning aytishicha, yorning xati rayhonga, zulfi xuddiki tovlanib turgan sunbulga o‘xshatish orqali buyuk bir san‘at asariga teng bayt yaratdi. Shoir misralarni davom ettirar ekan, yorning bo‘yini shunchalik to‘g‘ri va tekis ekanligini isbotlash uchun uning bo‘yini Alifga o‘xshatadi. Qoshlarini esa nun harfidek chizib bezab qo‘yilgan darajada bejirim va takrorlanmas ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Bu yorning shunchalik go‘zalligini ko‘rgan dunyodagi boshqa go‘zallar esa ma’shuqaning husnu jamoliga oshiq bo‘ladi va bunday go‘zallikka Majnun Layliga qanchalik ishtiyoq bilan intilgan bo‘lsa, go‘zallar ham ma’shuqadek go‘zal bo‘lish uchun chin dildan unga intiladi va ayni damda barcha go‘zallar tan oladiki, oshiqning ma’shuqasi hamma go‘zallardan ham go‘zaldir.

Xo‘jandiy bu o‘rinda go‘zal she‘r yozish bilan bir qatorda o‘zining adabiyot bilimdoni ekanligini ham namoyon etib o‘tgan. Ya’ni, shoir shu to‘rt qatorda, tashxis, tanosub, kitobat, irsoli masal kabi bir qator she‘riy san’atlardan ustalik bilan foydalana olganligi tahsinga sazovor.

Sayid Ahmadning “Taashshuqnoma” asarida ma’shuqa obrazini o‘z salafлари va zamondoshlari kabi hayotiy go‘zallikning ramziy sifatida har tomonlama, go‘zal, jozibali va maftunkor qiyofada talqin etishga muyassar bo‘lgan. Ayni zamonda illatalrini, salbiy xususiyatlarini ma’shuqa qiyofasida aks ettirishga harakat qilgan.

Alo, ey sarvi bo‘yluk lola ruxsor

Ko‘zing jayron mengingdur mushki totor.

Qaroqchi ko‘zlaring ey rashki huro,

Qilur yuz ming baloni boshqa paydo.

Ma’shuqa sarv bo‘ylik, lola yuzlik, ko‘zlari jayron. Shoir asarda ma’shuqa obrazini tavsif etar ekan, bunday go‘zallik huru parilarda ham yo‘q ekanligi, bunday go‘zallik mana shu real hayotda real insonda ekanligini ko‘rsatib, bunday

go'zallik oldida huru parilar hamlol ekanligigina alohida uqtiriladi. Bunday go'zallikka barcha insonlar maftun bo'lishlari, uni sevishlari, e'zozlashlari kerak, u shunday e'zozga loyiqdir. Shoir asarda ma'shuqaning insonni maftun etuvchi juda ko'p va xilma-xil ko'rinishlari va sifatlarini zo'r san'atkorlik bilan ta'rif va tavsif etadi.

Bo'yungdur ey sanam chun sarvi ozod,
Senga qul bo'ldi har kim bo'ldi ozod.

Ma'shuqaning bo'yi sarvdek tik va ozod. Ma'shuqaga qul bo'lgan oshiq bu ishidan juda ham mamnun. Chunki ma'shuqaga qul bo'lgan har kishi borki, u ma'shuqaga qul bo'lganidan ozod sanaladi.

Sochingdur laylatulqodru yuzing oy,
Bo'yung tubou husning jannataroy.

Oshiq uchun ma'shuqa shunchalar go'zalki, uning yuzi oyga qiyoslanadi. Sochlari esa oshiq uchun laylatul - qadr kechasidek qadrlidir. Bo'yi esa juda ham xushro'y, husni jannatdek beqiyos.

Mumtoz adabiyotimizda ulkan iz qoldirgan zabardast vakillaridan yana biri Mavlono Lutfiydir. Lutfiy lirik asarlari markazida yuksak ijobiy ideallar egasi oshiq va uning sevgilisi – mahbub obrazlari turadi. Lutfiy oshiq – mashuq obrazlarini juda ustalik bilan tasvirlaydi. Oshiq hijronzada uning qomati g'am yuki ostida bukilgan, sochlari oqargan. Yuzining za'faronligi oldida oltinning rangi ham o'z qimmatini yo'qotadi. Ma'shuqa qaddi-qomati kelishgan, har qanday go'zallikka rashk soluvchi sohibjamol. Shoir mahbubdagi "quyoshdek issiq husn", "qosh bilan o'ynashgan ko'zlar", "insonni uyaltirib ko'kka qochirgan lablar", "pistani hayratda qldirgan o'giz", "sarvga o'xshagan qomat" kabi sifatlarni ta'riflab zavqlanadi.¹⁶

Shoir ijodida eng ko'p va muvaffaqiyatli qo'llangan she'riy san'atlardan biri husni ta'lil san'atidir. Bu san'atda shoir aytmoqchi bo'lgan fikrini unga

¹⁶ Эркинов С. Лутфий ҳаёти ва ижоди. –Т.: Фан. 1965. 37-б.

mutlaqo aloqasi bo'lmagan narsa bilan dalillaydi. Bunday favquloddalik kitobxon zavqini oshiradi. Navoiyning "Majolis-un nafoyis" tazkirasida keltirilgan, adabiy davralarda zavq- shavq bilan o'qilgan quyidagi baytni kuzataylik:

Noziklik ichra belcha yo'q tori gesuyi

O'z haddini bilib o'ltirur belidin quyi.

Bayt mazmuni: Yor sochining bir tolasi noziklikda belicha emas, shuning uchun o'z haddini bilib, beldan pastda turibdi.

Soch tolasining belchalik nozik emasligini bilib, beldan pastda turishi husni ta'lil san'atidir. Chunki yo sochi uzun bo'lsa, bel qanday bo'lsa ham, undan pastda tura beradi. Belning soch rolasidan ham nozikligi mubolag'aning ifrod shaklidir. Soch tolasining o'z haddini bilib, beldan pastda turishi jonlantirishning tashxis shaklidir.¹⁷

Hayratda menki turra parishonlig'i nedur,

Qiltek belingni chun kechalar to sahar quchar.

Baytda "qiltek beling" birikmasida sifatlash, tashbeh va kecha va sahar so'zlari bilan tazod san'ati yuzaga kelmoqda. "r" harfining takroridan tavze' va "a" unlisining takroridan alliteratsiya san'ati yuzaga kelmoqda.

Gulgun qabo netak quchar ul inchka belni,

Afsun o'qurmi yoxud oning o'zga oli bor?¹⁸

gulgun – qizil

qabo – uzun va keng ko'ylak

ol – hiyla

¹⁷ Jalilov B. Mavloni Lutfiy. –T.: 2015.30-bet

¹⁸ Эркинов С. Лутфий.-Т.: Бадиий адабиёт нашриёти. 1965. 75-б

incha – ingichka

Bayt mazmuni: Qizil rangli uzun ko'ylak nima uchun ul ingichka belni quchmoqda, u afsun o'qirmi yoki o'zga hiylasi bormi?

Baytda "gulg'un qabo", "inchka bel" birikmalarida sifatlash san'ati mavjud.

Og'zini bor desam, aning hech vujudi yo'q,

Belini yo'q desam vale ehtimoli bor.

Ushbu baytda ma'shuqaning beli ingichkalikdan yo'qlikka tomon o'tdi. Ya'ni oshiq ma'shuqaning og'zini bor desa, lekin uning hech ko'rinmayotganligi, belini yo'q desa, bu ayni haqiqat ekanligini aytmoqda. Baytda mubolag'a, tazod, alliteratsiya, assonans san'atlari qo'llanilgan.

Ey "mim" og'izli belingga ko'nglum qo'yub dedim,

Rahmim kelurki, qilcha beling yuki qof erur.

Ushbu baytda oshiq ma'shuqning og'zini arab alifbosidagi "mim" harfiga o'xshatmoqda. Oshiq ma'shuqaning belini arab harfi ق (qof) ning tik chizig'iga o'xshatmoda va ma'shuqaning shunchalik nozik belida katta yuk ko'tarib turganiga rahmi kelishini izhor qilmoqda. Baytda kitobat, sifatlash, tashbeh, mubolag'a kabi san'atlar qo'llangan.

Qil uchi belinga Lutfiy eli yetmas, chiqar joni,

Ravo tutmoqi yo'q yerda, bu qul o'lgay tamannodin.

Baytda ma'shuqaning beli endi qilga emas, balki qil uchiga o'xshatilmoqda.

Kim oy ko'rdi seningdek boshida mushkin toj,

Va yoki sarv qadingdek Qrim to'moyinda?

Mazmuni: Kim seningdek oy ko'rdiki, u sening boshingdagi qora tojingdur va Qrim tomonida sarv ko'ribdiki bu sening sarvdek qaddi-qomatingdur.

Qil uchi bor demishlar og'zingni,

Ko'rki, yo'q yerda ne xabar dedilar

Mazmuni: Ma'shuqaning og'zi gul g'unchasiga, pista og'ziga o'xshatiladi. Lutfiy ma'shuqaning o'g'zini shu darajada ta'riflaydiki, uning o'g'zi qilning uchidek. Oshiq ma'shuqaning og'zini qil uchidek deb bilar edi, lekin qarasaki, o'sha ingichka og'izdan ham hech bir asar yo'q emish. Baytda assonans, alliteratsiya, tazod, tashbeh, mubolag'a kabi she'riy san'atlar qo'llanmoqda.

Boqtim yuziga olida jon vaqf lozim ul,

Ul rahmat oyati uza chun og'zi "mim" erur.

Mazmuni: Oshiq ma'shuqaning qizil yuziga qarasaki, uning og'zi shu darajada kichikki xuddi arab alifbosidagi م (mim) harfidek. Oshiq ma'shuqaning qizil yuzi va mim og'zini ko'rib joni to'xtash lozim ekanini aytmoqda.

Lutfiy ma'shuqaning og'zini shu darajada chiroyli sifatlar bilan ta'riflaydiki, uning og'zini "mim"ga, pista og'ziga, qilning uchiga, nuqtaga sari kichraytirib ta'riflaydi. Quyidagi baytda esa Lutfiy ma'shuqaning og'zini yo'qligini juda chiroyli qilib ta'riflaydi:

Adamdur ul og'iz fikrinda Lutfiy,

Xaloyiq bilmay uni bor derlar.

adam – yo'qlik

Mazmuni: Lutfiy shunday fikrdaki, ya'ni u biladiki ma'shuqaning og'zi yo'qligini lekin xaloyiq buni bilmasdan uni bor deyishadi. Baytda istiora, "adam" va "bor" so'zlari orqali tazod, mubolag'a, alliteratsiya va assonans san'atlari qo'llanilgan.

Shak nuqtasidur la'l uza xol og'zing uchunkim,

Ne bori muayyanduru ne yo'qi yaqindur.

la'l – qizil rangli qimmatbaho tosh

muayyanduru – aniq

yaqin – komil ishonch

Mazmuni: Oshiq ma'shuqaning nuqtadek qizil rangli labi ustidagi xol og'zingni na borligi aniqdur na yo'qligiga ishonch bor demoqda.

Tilab ko'nglum sening og'zingni topmas,

Kichik uchun magar o'ynar yoshunmoq.

Mazmuni : Mening ko'nglim sening og'zingni istaydi, lekin og'zingni kichikligidan uni topib bo'lmaydi.

Lutfiy ijodi b'yicha ma'shuqaning bundy sifatlarini juda ko'p keltirishimiz mumkin. Shuningdek Lutfiy ijodida kitobat san'atini ham ko'plab uchratamiz:

Ko'rmish qora soch halqasi ostingda meningni,

Jim o'rtasida ul kishikim nuqta solibdur.

meng - xol

Mazmuni: Bizga ma'lumki ج ”jim” harfi xuddi ilmoqqa, halqaga o'xshaydi va o'rtasida nuqtasi bor. Oshiq ham ma'shuqaning qulog'i oldidagi ilmoqqa o'xshagan sochini juda chiroyli qilib o'xshatish qilmoqda. U ma'shuqaning soch halqasi ”jim” harfiga, halqa ostidagi xolini esa ”jim” harining o'rtasidagi nuqtaga tashbeh qilmoqda.

Qoshing nuni uchun o'ynar ko'zum yosh ichra olmosi,

Ajab tifleki iymalmas bunday mavji daryodin.

tiflek – bola tabiatli, sodda

Mazmuni: "Nun" qoshingni ko'rib, mening olmosdek ko'z yoshlarim ko'zimning ichida o'ynab daryodek mavj urmoqda, lekin ajab bir soddalikki, sen bunda parvo qilmay, bundan uyalmayapsan.

Baytda Lutfiy kitobat san'atini qo'llab, ma'shuqaning qoshini "nun" harfida qiyoslamogda. Baytda tashbeh, mubolag'a, "qosh", "ko'z" so'zlaridan esatanosub san'ati yuzaga kelmoqda.

Sharq lirikasida ishq - muhabbatni kuylash asosiy mavzulardan biri bo'lib kelgan. Otoi g'azallarining ham bosh g'oyasi va asosiy ohanglarini ishq va u bilan bog'liq fikr-u tuyg'ular tashkil etadi. Shoir ta'biricha, ishq "gavhari qimmatbaho", "azaliy hidoyatdir". Otoi ma'shuqaning tashqi, jismoniy go'zalligini uning botiniy olami bilan uyg'unlikda ta'riflaydi. Ya'ni uning surat va siyrati an'anaviy, biror yangi poetik obraz va badiiy san'atlar vositasida mahorat bilan ochib beriladi.

Shoir g'azalda ma'shuqaning ko'z, yuz, zulf, qomat, xat, xol, lab va tishlarini alohida-alohida sifatlaydi:

Yangog'ung ravzai jannat gulidir,

Bo'ying tubi, labing kavsar elidir.

Ko'zing nargis, yuzing nasrini zulfung

Gulistoni eramning sunbulidir.

Azaldin to abad jon andalibi,

Jamoling gulshaning bulbulidir.

Sabo dovudi zulfingdan o'tarda,

Sulaymon lashkarining g'ulg'ulidir.

Atoyini agar olamg'a sotsang

Sot, ey zohid, ki ul xo'blar qulidur.¹⁹

Otoyi ma'shuqa qaddini komil, nuqsonsiz, juda go'zal qilib ta'riflaydi.

Quyidagi baytda ma'shuqa qaddini ko'rganda oshiqqa o'xshab sarvu shamshodlar ham turgan joylarida tik qotib qoladilar. Bog'bon bo'yi kelishgan go'zal sarvni bo'yin egmagani uchun shoxu barglarini kesib tashlaydi:

Har biri turg'on yerinda qoldi hayron bandatek,
Qomatingdin bog' ichidan sarvu ham shamshodlar.

Bog'bon sarvu sihini kesdi shohu bargini,
Ne uchun indurmadi deb tol bo'yung olida bosh.
Shoir bir baytida qadni gul yog'ochiga, zulfni gul yog'ochi ustidagi
zog'larga o'xshatadi:

Zulfungu qaddingni ko'rgach bog'bon aytur ravon,
Gul yag'ochi ustina qo'nmish ajoyib zog'lar.

Shoir ma'shuqa qomatini ta'riflar ekan, hayotiy timsollardan foydalanadi. Oqar suvning sarv daraxtiga hayot, ko'rk bag'ishlagani kabi yorning qomati oshiq ko'z-yoshlaridan yanada ko'rkamlashadi, go'zallashadi:

Qomating xushtur vale ikki ko'zumda yaxshiroq,
Sarv uchun xushroq ko'rinur bo'lsa oqar suv bila

¹⁹ Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Т.: Фан, 1995-й 77-78-б.

Otoiy lirikasida ma'shuqaning yuzi ham juda chiroyli sifatlar bilan ta'riflanadi. Shoir g'azallarida "yuz" lola, oy, quyosh, sham', tong va boshqa narsalarga o'xshatib ta'riflanadi. Ma'shuqaning yuzi to'lin oy kabi. Xasta dil oshiq unga boqqani bilan ko'zi to'ymaydi va bu unga faxrli ishdir:

Har xasta dilkim, ul yuzi to'lin oy boqar,

To'ymas ko'zi kuyar tan-u joni yano boqar.

Otoiy ma'shuqasining yuzi chiroy bobida Yusuf payg'ambardek, sochlari esa xuddi Sulaymon payg'ambar lashkaridek. Bu baytda Otoiyi talmeh, tashbeh, mubolag'a kabi san'atlar qo'llangan:

Yuzi husn ichra Yusufcha tuman ming,

Vale zulfi Sulaymon lashkaridur.

O'rtandi gul yuzing o'tidin lolazorlar,

Yolg'iz ne lola, balki aningdek xazorlar.

Mazmuni: Gul yuzing o'tidin lolazorlar o'rtandi, faqat lolazorlar emas, balki minglab bulbullar o'rtandi.

Yangog'ung ravzanung jannat gulidur,

Bo'yung tubi, labing kavsar yelidur.

yangoq – yuzning olmasi

tubi – jannatdagi daraxt

Ushbu baytda Otoiy ajoyib tashbehlardan foydalangan. U ma'shuqaning yuzini jannat guliga, bo'yini jannat daraxtiga, labini kavsar suviga qiyoslamoda.

Jim zulfung, nun qoshing qasdi jon aylab edi,

Boqi bo'lsun, lutf etib kirdi alif qadding aro.

Otoiy ushbu baytda juda ham chiroyli so'z o'yini qilmoqda. U جان (jon) so'zi orqali so'z o'yini va o'xshatish qilmoqda. ج (jim), آ (alif), ن (nun) harflari qo'shib yozilsa, جان so'zini tashkil qiladi. Alif – tik, jim – gajakli, nun – egma qilib yoziladi. Shuning nuchun yorning tik qomati alifga, zulfi jimga, qoshi nunga qiyos etilgan. Alif jon so'zining o'rtasida yuqoiga qarab tik holatda yoziladi. Demak, ma'shuqning tanasi ham jonday aziz va nozik.

Otoiy endi ma'shuqaning og'zini ta'rifini keltirishga o'tadi:

Mim og'zi bila zulfi, qadi lom alifdek,

Ey voy, netay, xasta ko'ngul qoldi alamg'a.

Baytda og'iz م (mim) ga, zulf ل (lom) ga, qad آ (alif) ga o'xshatilgan. Alif, lom, mim harflari birgalikda ألم (alam) so'zini tashkil qilganidek, oshiqning ko'ngli ham ma'shuqning qaddi, zulfi va og'zining dastidan alamda qolgan. Shoir harflardan tashbeh, so'z o'yini yaratishda foydalangan. Ushbu baytni diniy nuqtai nazar tomonidan talqin qiladigan bo'lsak, shoir Qur'on surasining boshida kelayotgan sirli uch harfga ishora qilayotganini anglashimiz mumkin.

Ul sanamkim, suv yaqosinda paridek o'lturur,

G'oyati nozukligindin suv bila yutsa bo'lur.

Ushbu bayt Otoiyning eng mashxur bayti hisoblanadi. Otoiy ma'shuqani pariga qiyoslamogda. Xalq tilida nozik, go'zal qizlarga nisbatan "Bir tomchi suv bilan yutilgudek" degan ibora ishlatiladi. Otoiyning ma'shuqasi ham shu darajada nozikki, suv bilan yutilgudek.

Boshqa mumtoz shoirlarimiz ijodida ma'shuqaning og'zi pista o'g'ziga, gul g'unchaga, nuqtaga o'xshatiladi. Otoiyda esa ma'shuqaning og'zi ko'rinmas, yo'q:

Yurarda yeng bilan og'zingni tutma,

Nimakim, yo'q turur yoshirmog'ing ne?

Mazmuni: Yurarda yeng bilan og'zingni tutishingga ne hojat, yoshirgani nimang borki berkitasan?

Boshqa shoirlarimizda ko'rdikki ma'shuqaning belini qilga, qil uchiga o'xshatilgan Otoiyda esa ma'shuqaning beli qilni ikkiga bo'lingan holatiga tenglashtiriladi:

Qilni ikki yormishi qilmish azalda bir qalam

Belingiz tasvirini qilg'anda naqqoshing begim.

Buyuk turkiy nazmning gultojisi bo'lmish Navoiy ijodini ham kuzatar ekanmiz Goh go'zal sifatlar bilan ta'riflanayotgan mabuba, goho achchiq almlarga giriftor bo'lgan oshiq timsollarini uchratamiz.

Otoyi g'azallaridan birida ma'shuqaning zulfi "jim" ga, qaddi "alif" ga, qoshi esa "nun" ga o'xshatilganini yuqorida ko'rib o'tdik. Navoiy ham Otoiyning bu baytidan ta'sirlanib, "jon" s'zining imlosidan foydalanib mahbubaga jonini quyidagicha hadya etadi²⁰:

Jonimdagi jim ikki dolingga fido,

Andin so'ng alif toza niholingga fido.

Nunidagi anbarin hilolingga fido,

Qolgan ikki nuqta ikki xolingga fido.

²⁰ Жалилов Б. Сиз билмаган Навоий. –Т.: “Академнашр”. 2011. 100-б

Yuqoridagi baytlarda tahlil qildikki, Xorazmiy ma'shuaning belini qilga o'xshatadi, Lutfiy qil uchiga, Otoiyning mahbubasining beli esa shu darajada nozikki qilni ikki bo'linganiga teng. Navoiyda esa ma'shuqaning beli va og'zi bir bor va bir yo'qdek:

Belu og'zidin dedilarkim, degil afsone,

Boshladim filholkim: "Bir bor edi, bir yo'q edi".

Navoiy yorning labi ustidagi nuqtadek xolini huda ham chiroyli qilib tasvirlaydi:

Nuqtai xoling nechun shirin labing ustidadur,

Nuqta chun ostin bo'lur, har qaydakim yozilsa lab.

mazkur baytda Navoiy tajohilu orif san'atini qo'llamoqda. Bila turib o'zini bilmaslikka solmoqda va yorga shunday savol bemoqda: "Lab yozilganda (arab yozuvida) nuqta ostida bo'lish kerak edi. Nega sening nuqtadek xoling (sifatlash, o'xshatish) shin labing uida turibdi?" Baytda arab yozuviga ishora borligi uchun kitobat san'ati, ost-ust so'zlari orqali esa tazod san'ati qo'llanilgan.²¹

²¹ Жалилов Б. Сиз билмаган Навоий. –Т.: "Академнашр". 2011. 74-б

3-bob.Ma'shuqa xarakteridagi salbiy xususiyatlar talqini

Mumtoz shoirlaimiz ijodini kuzatar ekanmiz g'azallarda ma'shuqaning sifatlari maqtaladi, ma'shuqani o'xshatilayotgan predmetlardan ham go'zal qilib tasvirlanadi va yana ma'shuqani zulmkor, jafokor sifatida gavdalanishiga guvoh bo'lamiz. Ma'shuqning oshiqqa berayotgan jabru-jafolari qanchalik zulmkor bo'lsa u oshiq uchun shunchalik farog'baxsh. Ma'shuqaning jabr-zulmlari jondan o'tadiki u oshiqni qon yig'latadi, devonai Majnunga aylantiradi. Oshiq ham ma'shuqaning bunday bevafoqidan qattiq achchiqlanadi.

Xususan, Xorazmiy "Muhabbatnoma" sida ma'shuqani bevafo va iltifotsizlikda ayblaydi:

Chechak derman yuzunguzga qamar ham,

Xaloyiq sevganin xoliq sevar ham,

Qachonkim shod etsang gamgina rahm et

Agar sulton esang, miskina rahm et.

Yorning yaxshi sifatlarini maqtab ardoqlab shoir uning vafosizlik, shavqatsizlik, iltifotsizlik kabi xislatlariga befarq qarab turolmaydi, uni qattiq qoralab, shikoyat qiladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, o'tmishning boshqa progressiv yozuvchilarida bo'lgani kabi, Xorazmiyning yordan shikoyat qilib aytgan so'zlari kengroq va chuqurroq ijtimoiy mohiyatga ega bo'lib, yashagan muhitining adolatsizlikka qarshi ma'lum norozilik kayfiyatlarini ham ifodalaydi.

Ayo nomehribon ahdi baqosiz,

Jahon yeltek umr gultek vafosiz.

Qamuq yoqut erinli so'zi durlar.

Vafosizliqni sizdin o'rganurlar.

baqosiz – bebaho; foni

Baytning ma’nosi: Oshiq yorining nomehribonligidan shikoyat qilmoqda. Oshiq ma’shuqani ko’rgan, ammo vasliga yetolmay qiynalmoqda. Uni qanchalik sevmasin uning nigohiga muhabbatiga yetolmaganidan kuyinib yozadi. Lekin oshiqning iltijolari e’tiborsiz qoladi, oshiqqa jabr-sitam ortib boradi. Shirin so’zlilar ham vafosizlikni sizdn o’rganadilar.

Husnni to xuvaydo qildi xoliq

Husn birla vafo bo’lmas muvofiq.

Jafodin ingramas bu yo’lda ushshoq

Vafodin javringiz ming qatla xushroq.

xoliq – yaratuvchi

ushshoq – oshiqning ko’pligi

Bayt mazmuni: Yaratguvchi xudo sizni juda ham tengsiz qilib yaratdi, lekin shu husningiz bilan vafoyingiz muvofiq emas. Lekin har qancha bevafo bo’lmang oshiqlar bu yo’lda hech ham ingramas ya’ni ortga qaytmas. Sizning vafoyingizdan ko’ra, jafoyingiz a’loroqdir. Ya’ni beadaddir.

Xo’jandiyning ”Latofatnoma” asarida ham ma’shuqaning bir qancha salbiy xususiyatlariga guvoh bo’lamiz:

Rahimsiz bevafo nomehribonim,

Firoqing o’tida o’rtandi jonim

Unutding bir yo’la ahdi vafoni,

Falakdinmu saboq olding jafoni.

Bayt mazmuni: Oshiq o’z ichki kechinmalarini yolg’onsiz, chin yurakdan ifoda etgan bu baytda ma’shuqaning jabru zulmlaridan charchaganini bayon qiladi. Oshiq ma’shuqaga qanchalik mehr va vafo bersa, ma’shuqa unga shunchalik azob berayotganligidan nolib, og’rinib gapiradi. Oshiq ma’shuqaga

muhtoj, uning visoli oshiqning kamoli bo'lishini takror va takror aytib oh uradi. Oshiqning yolg'izgina ilinji bor. Bu ma'shuqaning visoli, ammo uning xoxishiga qarshi o'laroq oshiqqa ayni damda visol emas, firoq nasib qilgan. Oshiq falakning bu taqdiridan rozi emas. Oshiq joni firoq o'tida o'rtanayotganini, yorsiz kunlarida mamun qolmaganini aytib oh uradi. Biroq u shunday vaziyatda ham ma'shuqadan kechmaydi, unga tomon bot-bot talpinaveradi.

Oshiq qachonlardir ma'shuqa o'zini sevganini qolaversa, o'rtada ahdu-paymon ham bo'lganini kuchli bir istirob bilan eslaydi. Ma'shuqaning bunday o'zini tutishi oshiqni shunday o'ylashga majbur qiladi. Oshiq ma'shuqani bevafoqlik qilmaslikka, o'zini oshiq uchun baxshida qilishga da'vat etadi, buning uchun qoldan kelgancha harakat qiladi. Oshiqni ma'shuqaning bu darajada o'zgarib ketgani tashvishga soladi. Bu o'rinda oshiq o'zi bilmagan holda falakni ham ayblab ketadi. Ya'ni aytadiki, bularning barchasiga falak aybdor deb biladi. Chunki ma'shuqa bu darajada bevafo bo'lib ketishini hech kutmagan edi. Oshiq ma'shuqani bir xil muomalada bo'lishni, turfa nigori bo'lmaslikni qayta va qayta takrorlaydi. Oshiq ma'shuqaga oldiga qaytishni va o'ziga nisbatan mehribon bo'lishini tayinlaydi.

Ayo ahdi vafosiz dilrabo yor,

Nigori sarv qaddi lolaruxsor.

Aliftek togri qaddim yo g'amingda

Ko'zum chashmasi daryo g'amingda

Bayt mazmuni: Oshiq ma'shuqaga norozilik kayfiyati bilan murojaat qilyapti. Ma'shuqani vafosizlikda ayblaydi, o'ziga nisbatan sodiq bo'lishga chorlaydi. Oshiq ma'shuqani qanchalik sevsa, ma'shuqa ham oshiqni shunchalik sevishga chorlaydi. Uning go'zalligi oldida hamma unga tan beradi. Xo'jandiy bu yerda tazod san'atini ham ishlatib aytadiki, yor qanchalik go'zallikda, husnda tengsiz bo'lsa, bevafoqlik bobida ham unga yetadigani yo'q deb, aytib o'tadi. Yor shunchalik chiroyli, uning nigori tabiatimizdagi eng chiroyli sarv daraxtidek daraxt bilan yorni bunday chiroyli o'xshatish uchun avvalam bor haqiqiy shoir bo'lish kerak. Qaddini esa lolaruxsor deb ta'rif va tavsif qiladi. Shoir oshiqni ham

go‘zallikda tengsizlar qatorida keltiradi. Oshiqning ham qaddi alifdek to‘g‘ri ekanligini aytib o‘tadi. Bu yerda ham shoir oshiqning qaddi qomatini tasvirlashda tazod san’atidan foydalanadi. Masalan: oshiqning qaddi alifdek to‘g‘ri edi, biroq ishq-muhabbatga shaydo bo‘lib qoladi. Yoning visoli uchun tinmay iztirob chekadi, natijada alifdek qomadi bunday og‘ir g‘amni ko‘tara olmay xuddiki yoyday bo‘lib egilib qoladi. Ammo oshiqning yuragi endi hech narsaga bo‘ysunmaydi, hech narsaga parvo qilmaydi, ma’shuqa uchun yashaydi, xolos. Bu misrada tazod san’ati bilan bir qatorda tashbeh she’riy san’atining ham nodir namunasini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Oshiq shunchalik ma’shuqaning g‘amida kuyyaptiki, ko‘z yosh qilib yig‘lash darajasiga borib qolgan. Yig‘laganda ham shunday yurakdan oh urib yiglayaptiki, ko‘z yoshlari daryo bo‘lib oqyapti. Bu yerda Xo‘jandiy mubolag‘aning g‘uluv turini shunday ishlatganki, buni kitobxon chin qalbdan his qila oladi.

Manda sendin jafo ayni vafodur

Jafo o‘z bo‘lsa oshiqqa jafodur.

Nigore jaf haddin oshurma,

Firoq o‘ti bilan bag‘rim pishurma.

Bayt mazmuni: Oshiq shunday deydi, ma’shuqani jaolari unga ozor emas, balki juda yoqimli deb biladi. Oshiqqa tinch va osuda yashagandan ko‘ra jizganak bo‘lish ma’qulroqdir. Oshiqning tilagi agar ma’shuqa jafokor bo‘lsa ham oshiqning yonida tursa bo‘ldi, shuning o‘zi oshiqqa qilingan vafoga teng bo‘ladi. Yana oshiq sevgining qudratidan kelib chiqib aytadiki, jafo u uchun umuman muammo emas. Qachonki, ma’shuqa oshiqning hayotidan kelib unga jafo qilishni bas qilsa, mana bunga endi oshiq chiday olmaydi. Lekin shunda ham oshiq ma’shuqaga aytib o‘tadiki bir umr jafo qilma bu jafolarning oxiri qachondir visolga yetishini istaydi.

Firoq o‘ti bilan bag‘rim pishodir deb aytilgan misrada oshiq jafo qanchalik ko‘p bo‘lsa uning sevgisi shunchalik sinaladi, imtihon bo‘ladi. Firoq ma’shuqaga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi uni bundanda kuchliroq sevishga asos bo‘lib xizmat

qiladi. Firoq o'ti ayni damda oshiqning jon-jonidan o'tib ketgan, endi unga visol lazzati kerak bo'lyapti.

Lutfiy ijodida bechora oshiqning ma'shuqa nisbatan noroziliklarini, ma'shuqaning bevafo, nomehribonligini ifodalovchi baytlarni ko'rib o'tsak:

Chun vafosizlarga bermishlar azaldin ko'rkni,
Bu kamoli husn ila qaydin vafo bo'lsin sango.

Baytning mazmuni: oshiq ma'shuqaning vafosizligidan qattiq iztirob chekmoqda. Azaldan xudo go'zallarni yaratganida ularni bevafo qilib yaratadi yoki bevafo larni go'zal qilib yaratadi. Senda shunday chiroyli, jonni o'rtovchi husn bor-u, lekin zarradek vafo yo'q.

Tog'ni eritur ohim asar qilg'usi bir kun,
Ko'nglung nechakim bo'lsa temur, tosh, dag'i po'lod.

Baytning mazmuni: Oshiq ma'shuqaning ko'yida, uning visoliga yetishish uchun ko'p sitam va jafo ko'radi. Uning chekkan ohlaridan hattoki tog' ham erib ketadi, lekin ma'shuqaning ko'ngli tosh, temir, po'latdek qattiq. Baytda po'lat, tosh, temir so'zlari orqali tanosub san'ati, mubolag'a, tashbeh san'atlari qo'llangan.

Ne ko'ngli sodda eldur ishq elikim,
Seningdek bevafo ni yor derlar.

Baytning mazmuni: Oshiq yana ma'shuqaning bevafo ligidan fig'oni falakka chiqmoqda. Oshiqlarni ko'ngli shu qadar soddaki, sendek bevafo lar jabr-zulm qilsa ham baribir yor deb ko'ngul uzolmaydilar.

Ul tosh ko'ngullik g'amida Lutfiy ko'zindin,
Har soriki, ko'z kor qilur soy ko'rinur.

Baytning mazmuni: Lutfiy mahbubani tosh ko'ngullik deya, ma'shuqa visolida ko'z yoshlari soy kabi bo'lganidan e'tiroz bildirmoqda. Baytda tosh ko'ngullik birikmasida sifatlash va tashbeh san'ati, mubolag'a san'ati qo'llangan.

Vafo qilmoqqa qo'ymas chun seni husn,
Jafo birla meni rasvo qilibsana.
To'kar g'amzang damo-dam Lutfiy qonin,
Magar ko'z uchidin imo qilibsana.

Baytning mazmuni: g'amz – noz bilan qarash; Senga vafo qilmog'ingga husning yo'l qo'ymas. Meni ne jafolar birla rasvo qilding. Sening ko'z uchidan bir noz ila qarashing Lutfiyning qonini to'kmoqda. Baytda vafo va jafo so'zlari orqali tazod san'ati; mubolag'a, assonans, alliteratsiya kabi san'atlar qo'llangan.

Nechaki javr qilursan, vafodin ortiq erur,
Karamni o'zgacha qilsang jafodin ortiq erur.

Baytning mazmuni: Oshiq shu qadar fidoiy oshiqki, yorning javrini jafodan ortiq ko'radi, yorning boshqalarga karami esa oshiqqa jafodan ortiq tuyuladi. Baytda "vafo", jafo" so'zlari orqali tazod, "n", "q" tavze, "u", "i" assonans kabi she'riy san'atlar qo'llangan.

Sendin ne tamanno qilayin mehru vafoni,
Kim ko'rdi vafo andaki bor husni jamoli?

tamanno – istak;

Baytning mazmuni: Oshiq ma'shuqaning bevafoolidan alamzada. Ma'shuqa bag'ritosh, qattol. Sendan nega ham mehr-u vafoni istayin, axir, kim ko'ribdi husni jamoli go'zallarning vafoli ekanligini? Go'zallar doimo bevafo bo'ladilar deya oshiq nola chekmoqda.

Ul oyki qazo bo'ldi manga ishq balosi,
Mehri bila o'lguchiga yo'q zarra vafosi.

qazo – taqdir;

Bayt mazmuni: Oshiq yorning go'zalligini oyga qiyoslayapti. Ul oydek go'zal, bevafoining ishq menga taqdir bo'lgan, lekin uning mehri bilan kuyguvchi oshiqqa zarra ham vafosi yo'qdir. Baytda "ul oyki" birikmasida sifatlash va tashbeh san'atlari va assonans, alliteratsiya san'atlari qo'llanilgan.

Bir kun jafo tugansa, netarsen, kerak bo'lur

Ko'p sarf qilma Lutfiyg'a javru itobni

itob – qahr, g'azab

Bayt mazmuni: Ey, bevafo go'zal, menga bunchalik jafokor bo'lma, jabr va qahrni Lutfiyga ko'p sarf etma bir kun jafo tugasa nima qilasan?

Baytda "jafo", "javr" so'zlari orqali tanosub; alliteratsiya va assonans san'atlari qo'llanilgan.

Otoiy ijodida ham bevafo, jafokor ma'shuqadan norozi oshiq iztiroblari aks etgan:

Vafosiz dilrabodin tengri bezor,

Agar husn ichra jannat huri bo'lsa.²²

Baytning mazmuni: Agar dilrabo go'zal husn ichida jannatning huri bo'lib, unga hech kim tenglasha olmas darajada bo'lsa ham, ammo bevafo bo'lsa bunday go'zaldan tangri ham bezor bo'ladi. Baytda "vafosiz dilrabo" birikmasida sifatlash va tashbeh san'ati qo'llangan. "Husn ichra" birikmada esa istiora san'ati qo'llangan.

Barcha el jannat tilosa, tangridin maxshar dami,

Men jafochi xo'blarning ilkidin faryod-u dod.

Baytning mazmuni: Barcha insonlar tangridan maxshar kuni jannat tilasa, men esa jafochi go'zallardan faryod qilib, yordam so'rayman. Baytda "jafochi xo'blar" birikmasida sifatlash va tashbeh san'ati qo'llangan.

Oldi ko'nglumni maning bir dilrabo rahm aylamas,

Domi ishq ilginda qildi muftalo rahm aylamas.

Kofari Xaybar maning holimni ko'rsa rahm etar,

Ey musulmonlar netay ul bevafo rahm aylamas.

Baytning mazmuni: Oshiq ma'shuqaning rahmsiz malak ekanidan qattiq alamda. Oshiqning ahvoli ma'shuqaning ko'yidan shu darajada achinarli

²² B.Jalilov, V.Qodirov, M.Tojiboyeva O'zbek adabiyoti. –T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2006. 20-bet.

holga tushganki, uning bu holiga Kofari Xaybar mening xolimni ko'rsa rahm etar, lekin ey, musulmonlar ul bevafo rahm aylamas demoqda.

Anqodurur jahonda vafo, bulbuli faqir,
Bilmay, ko'ngulni guli xurramg'a bog'ladi.

Bayt mazmuni: Ey, bulbuli faqir, jahonda vafo topish juda ham mushkul, anqodur. Sen bilmay ko'ngulni guli xurramga bog'lading. Baytda "gul", "bulbul" so'zlari orqali tanosub san'ati va "bulbuli faqir", "guli xurram" birikmalari orqali istiora san'ati yuzaga kelgan.

Rahmsiz qattiq ko'ngullik yorg'a qilmas asar,
Bu saning ohing Otoyikim, eritur toshni.

Bayt mazmuni: Oshiq yorning rahmsizligidan qattiq iztirob chekmoqda. Oshiq shu darajada oh chekadiki, xattoki, uning ohlari toshni eritishga qodir, lekin rahmsiz, qattiq ko'ngullik ma'shuqaga uning ohlari hech kor qilmas. Baytda "qattiq ko'ngul" birikmasi orqali istiora, sifatlash, tashbeh san'atlari qo'llangan. Oshiqning ohlari toshni eritishi esa mubolag'a san'atini yuzaga keltirgan.

Sakkokiy ijodida ham ma'shuqaning tamannosi-yu, befarqligidan jabr-u jafo chekayotgan oshiqni ko'rishimiz mumkin:

Furqatingda ey pari tan kuydi-yu jon yig'ladi.

Dam-badam ikki ko'zum xud qayg'udin qon yig'ladi.

Baytning mazmuni: Yorning furqatida ya'ni yuzini ko'rib, oshiqning tani kuydi va ikki ko'zidan bu qayg'udan yosh emas, balki qon oqdi. Baytda "tanning kuyishi" istiora, "jonning yig'lashi" jonlantirishning intoq shakli, ikki ko'zdan qon oqishi mubolag'aning ig'roq shakli; tan va jon so'zlari orqali tanosub; qon va jon so'zlaridan esa saj'i mutavoze san'ati yuzaga kelmoqda.

Shoirning omonim so'zlar orali hosil qilingan so'z o'yinlari boshqa san'atlarga qo'shilib, baytlarga qanot beradi, serjilo zavqboxsh satrlar yuzaga keladi. Bunday shoh baytlar shoirning yuksak mahoratidan darak beradi.

Ey ko'zim, bir dam ur, bag'rimda hech qon qolmadi,

Vey bale, rahm et tanimda qayg'udin jon qolmadi.

"Ey ko'zim" birikmasida istiora mavjud bo'lib, ko'zday aziz mahbubani ifoda etsa, uning dam urishi (isoga xos, iso o'likka jon bag'ishlaydi) talmeh san'atidir. "Dam" so'zi ikki xil ma'noda kelayotgani uchun tajnis san'atidir. "Bag'ir va qon", "tan va jon" tushunchalari bir - biriga bog'liq tushunchalar bo'lib tanosub san'atini yuzaga keltirmoqda. Qon –jon so'zlarida esa saj'i mutavoze san'ati bor.

Navoiy ijodida ma'shuqaning salbiy jihatlarini g'azallarida eng ko'p aks etganini uchratamiz:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,

Ko'zlaring'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Bayt mazmuni; Ma'shuqa oshiqqa kelaman deb, lekin va'dasiga sodiq qolmaydi, ya'ni kelmaydi. Bundan hasratda qolgan oshiqning tong otquncha uyqu kelmasligini iztirobda aytmoqda.

ro'- yuz; "kecha" so'zi ikki joyda ikki xil ma'noda ishlatilgani uchun bu yerda tajnis san'ati bor.

"Sarvi gulro'" birikmasida istiora, tashbeh, sifatlash san'atlari bor. "Kecha" va "tong" so'zlari orqali tazod san'ati yuzaga kelgan.

Lahza-lahza chiqdimu chekdim yo'lida intizor

Keldi jon og'zimg'a ul sho'xi badxo' kelmadi.

badxo' – yomon xulqli

Bayt mazmuni: Yor kelib qolarmikin deb, intizor bo'lib tez-tez yo'lga chiqdim, ammo jon og'zimga keldi-yu ul sho'xi yomon xulqli yor kelmadi. Baytda "l" undoshining aynan takroi tavze, "a" unlisining talkrori esa

assonans san'ati, oshiq jonining ogziga kelishi esa mubolag'aning ig'roq shakli, "sho'x badxo'" birikmasi esa istiora san'atini tuzaga chiqarmoqda.

Tolibi sodiq topilmas, yo'lg'a kim qo'ydi qadam,

Yo'lg'akim, avval qadam ma'shuqi o'tro' kelmadi.

Bayt mazmuni: O'tro' – yolg'onchi; Ishq yo'lida sadoqatli odam topilmaydi, shuning uchun ham yolg'onchi yor kelmadi. "yolg'onchi yor" birikmasida sifatlash san'ati va istiora yuzaga kelgan. Birinchi misra "yo'lg'akim qadam" so'zi bilan tugab ikkinchi misra shu so'z bilan boshlangani uchun tasbig' san'ati yuzaga kelgan.

Bobur ijodida ma'shuqaning salbiy xususiyatlarini ochib berishda "gul", "bulbul" obrazlari alohida rol o'ynaydi:

O'qi zahmini ko'rib har yon tanimda, el degay

Kim, bu ko'hi dardning ullolai nu'monidir.

ko'hi dard – dard tog'i;

lolai nu'mon – qizil lola;

Bayt mazmuni: Oshiq tanasida ma'shuqa o'qlaridan jarohatlar bisyor, xaloyiq bu holni ko'rib: "Bular dard to'g'ining qip-qizil lolalari-ku", - deydi. Baytda sifatlash, mubolag'a, tashbeh san'atlar qo'llangan.

G'unchadek ko'nglum mening gulzor mayli qilmag'ay,

G'am bila bitgan ko'ngul gulgasht ila ochilmag'ay.

Bayt mazmuni: Oshiqning ahvoli g'am-g'ussadan og'ir holatga kelgan. Baytdagi "g'unchadek" sifatlashi "gulzor mayli" ga rag'batsizlik shoirning ko'ngil holini sharxlaydi. Chunki uni g'am-g'ussa egallab olgan. Shuning uchun ham u hech mahal "gul gashti ila" ochilib-sochilmaydi. Buni kimgadir anglatish, izhor etish kerakmi? Rango-rang gul yetishtiruvchi bog'bon xayolga keladi. U har ko'ngulni gul va gulzor oshufta aylaydi deb o'laydi. Ammo tah – batah "qonluq ko'ngul"ning ahvoli o'zgachadir.

4-bob. Ma'shuqa xarakteridagi ijobiy xususiyatlar inkori

Ushbu bobda mumtoz ijodkorlarimizning ma'shuqaga aytilgan fikrlarni inkor etib, undan ham chiroyli sifatlar bilan dalillagani, e'tirof etganiga baytlar orqali misollar bilan ko'rib o'tamiz.

Xorazmiyning ta'rif etilayotgan ma'shuqasining go'zalligi quyidagicha:

Farishta ko'rsa bo'lgay sizga moyil,
Sizningdek kimda bor shakl-u shamoyil.

Yor shunchalik go'zalki, uni ta'rif va tasir qilishning umuman imkoni yo'q. Yorning bunchalik go'zalligini inson-ku inson hattoki, farishta ko'rsa ham undan ko'z uzolmaydi. Yorning husn-u malohati oldida farishtalar ham ip yecholmay qoladi. Olloh madh qilinayotgan ma'shuqani shunchalik go'zal qilib yaratganki, unga tenglasha oladigan go'zal yer yuzida yo'q. Oshiq mana shunday go'zalni sevib devonaga o'xshab yordan boshqa narsani o'ylamaydi.

Xo'jandiyda esa ma'shuqaning go'zalligini ko'rib gul uyalganidan g'unchaga aylanadi:

Jamoling ko'rib gul guncha bo'lg'ay
Tor og'zingtek magar gulg'uncha bo'lg'ay
Kular bo'lsang qish ichra yoz ochilur
Sochingdin anbari soro sochilur

Xo'jandiyning ta'kidlashicha, yor tabiat go'zalliklaridan ham go'zal buni quyidagi baytlari orqali ham ochiqdan-ochiq ifodalaydi. Uning aytishicha: o'zini tabiatning tanho sanami deb hisoblovchi gul ham ma'shuqaning jamolini ko'rgandan keyin uyalib g'uncha holiga tushib qoladi va go'zallikda o'z o'rnini ma'shuqaga bo'shatib beradi deb juda chiroyli tashbeh san'atidan foydalanadi. Xuddi shu o'rinda shoir yana bir go'zal o'xshatish orqali ma'shuqaning og'zini gulg'unchaga o'xshatib, husni ta'lil san'atidan g'oyatda ajoyib tarzda foydalana olganini namoyon etadi. Yor shunchalik go'zalki, - deydi oshiq, - hattoki, tabiat ham uning izmida yurganga o'xshaydi. Buning quyidagi misralardan ham sezib

olish mumkn. Hattoki, tabiatning fasllari ham uning husni jamoliga oshiq bo'lganini yashirmay tan oladi. Hattoki, qishning qoq o'rtasida ham ma'shuqa chindildan yorga ehtirom bilan kulsa, tabiatda keskin o'zgarish sodir bo'lib qahrmon qish yozga aylanib qoladi. Bu bilan shoir tashxis san'atidan juda mohirona foydalanadi. Qishning o'rtasida ma'shuqaning kulgisi tufayli yozning kirib kelishidek o'xshatish o'zbek adabiyoti tarixida erishilgan eng yutuqli o'xshatishlardan desak yanglishmagan bo'lardik.

Sahar gulgunchakim olamga kuldi,

Tor og'zingni ko'rib gul guncha bo'ldi.

Ko'zuni ko'rsa nargiz xira solg'ay.

Bo'lub osuk boshini yerga solg'ay.

Bu baytda ham Xo'jandiy tabiat tasviriga juda katta ahamiyat bergan. Inshiqoq, tashxis, husni ta'lil she'riy san'atlarini baytda juda mohirlik va nozik didlik bilan qo'llay olgan. Shoir aytadi: tabiatning qonun-qoidalariga bo'ysungan gul saharda o'zining muattar hidlarini olamga taratib kuldi va dunyodagi eng chiroyli manzarani hosil qildi, deydi. Biroq yor bog' sayriga chiqqandan keyin, uning go'zalligi, uning jozibasini ko'rgan gul bir lahzada avvalgi olamiga qaytib yana g'unchaga aylanib qoladi. Bunday shirin so'zli go'zal ma'shuqa ayni shu damda gul bilan husn bellashuvida g'olib bo'lib oshiqning muhabbatini yana bir bor oshirib jumbushga soladi.

Ma'shuqaning go'zallik jihatlarini sanashni davom etgan oshiq xayolda ma'shuqaning ko'zlarini eslaydi. Agar ma'shuqa bog' sayliga chiqsa va nargiz gulining yonidan bir bora o'tsa, ma'shuqaning ko'zini ko'rgan nargiz uyalib boshini yerga qaratib turadi. Shoir ona tabiat go'zalliklarini va ma'shuqaning go'zalligini bir – biri bilan solishtirib juda mukammal, badiiy, estetik jihatdan tarbiyaviy bir asar yaratgan.

Ko'zungni Zuhra ko'rsa xira qolg'ay,
Tolin oy sizni ko'rsa yarim bo'lg'ay.
Meni ishqingda asru zor qilma
Faqirlar ko'ngluni ozor qilma.

Mana shu o'ringa kelganda Xo'jandiy "Latofatnoma"ni samoviyashtiradi. Yanikim, ma'shuqaning go'zalligini yordan endi osmonu falakka olib chiqadi va ma'shuqaning go'zalligini yulduzlaru, oyga tenglashtirib ajoyib biriktiruvchi misollar keltiradi. Bilamizki, ona sayyoramizda eng porloq yulduz bu shubhasiz Zuhra yulduzidir. Zuhra yulduz ming yillar o'zining chiroyliligi bilan ajralib turadi. Zuhra yulduzdan insonlar dengizga cho'lu-biyobonlarga yo'nalishni aniqlab olish uchun ham foydalanganlar. Mana shunday jonli tarixga ega bolgan Zuhra yulduz bu safar yor go'zalligining oldida mag'lub bo'ladi. Bu o'rinda oshiq ma'shuqani Zuhra yulduzlardan ham go'zal deb aytadi. Bu ma'shuqa husnu jamolini g'oyatda go'zalligidan dalolat berib turadi. Bilamizki, tabiatda mavjud bo'lgan barcha narsalarning ichida oy o'zining hammadan chiroyliligi bilan ming yillar davomida ajralib turadi. Ayniqsa, oy to'lin bo'lganda o'zining haqiqiy go'zalligini bekamu ko'st namoyon qiladi. Ammo yerda undanda go'zal bir qiz yashaydi bu oshiqning ma'shuqasi, u shunchalik go'zalki go'zallikda hatto go'zal oyni ham uyaltirib qo'yadi va oy uyalib to'lin oy yarim holiga kelib qoladi bu esa mubolag'aning g'uluv turiga xos bo'lib, shoir juda go'zal tasviriy vositalar orqali ifodalay olgan. Misalarni davom ettirarkan, oshiq yorni sevib qolganini aytadi va ma'shuqaga adolatli bo'lishni ta'kidlaydi. Ya'ni uning sevgisini qabul qilishini har doim o'zi bilan birga bo'lishini aytadi. Men deydi oshiq ishqingda bir faqir bo'lib qoldim, sani shunchalik sevdim, endi sen ham menga bevafoqlik qilma deb zorlanadi. Oshiq ma'shuqadan ajralib qolishdan juda qo'rqadi. Ma'shuqaning vasliga yetish uchun tinmay intiladi. Oshiqning bu jafakor dunyoda yolg'iz kutayotgani, yolg'iz ilinji bor bu ma'shuqa vaslidir: ma'shuqadan so'raydiki umringni menga baxshida qil bo'lmasa faqir ko'nglim bu judolikdan tamoman ado bo'ladi, deydi.

Lutfiy ijodida ham ma'shuqaning yanada bo'rtirilgan , go'zal sifatlar bilan ifodalangan baytlarni kuzatamiz:

Hayratda qolib pista og'iz ochdi-yu qoldi

Majlisda chu og'zing soridin kechdi hikoyat.

Shoir e'tiroficha, yorning og'zi shu darajada kichik ekanki, majlisda pista ham hayratda og'iz ochib qolibdi. Baytda husni ta'li san'ati qo'llangan.

Labingdan chun suchuklik qand o'g'irlar

Solurlar el oni suvga yalang'och.

Bayt mazmuni: Qand yor labidan shirinlik o'g'irlagan. Otmishda qish chillasida o'g'rini tutib olsala yalang'och holda sovuq suvga cho'ktirganlar. Qandni esa odamlar choyni shirin qilish uchun choyga soladilar. Lutfiy husni ta'lil san'atini juda mohirona qo'llagan.

Yuzingdin lolarang eltib uyolib shaharga kirmas,

Aning bo'ynin keltirmguncha kishi bog'lab sahrocin.

Ya'ni yorning yuzining qizilligidan lola rang olib, uyalganidan shaharga kirmaski, uning to bo'ynidan bog'lb olib kelmmgunlaricha.

Ko'pchilik shoirlar yor yuzini oyga qiyos etadilar. Lutiy esa ma'shuqa yuzini oyga qiyoslamaydi, chunki oy yor oldida yuzida dog'i bor bir hindudir:

Jamolingkim tajalni ko'zgusidir,

Qaro tamg'olik oy bir hindusidir.

Husnu jamol ichinda nechakim kamoli bor,

Oyning qachon sening kabi husnu jamoli bor.

Umrinda gul yuzungga o'zin bir dam o'xshatib,

Bo'lmish araqta g'arq hanuz intifoli bor.

Intifol - uyat

araq – ter

Baytning mazmuni: Husnu jamoling shu qadar go'zalki, uning sen kabi jamoli yo'q. Gul o'zini umrida bir marta senga o'xshatgani uchun haligacha terga botib, uyatib yuradi.

Yolg'uz gul emas lola yuzingdin araq ichra,

Kun ne ko'rinur hinduyi zulfigda haq ichra

Baytning mazmuni: Ma'shuqning yuzini, go'zalligini ko'rib, gul emas lola ham ter ichida qolibdi, kun esa ma'shuqaning qora sochlarining ichida ko'rinmas holda qolibdi. Baytda "gul", "lola" so'zlari orqal tanosub, "hinduyi zulf" birikmasi orqali tashbeh va sifatlash san'ati, takror san'ati qo'llangan.

Ne yuz bila oy yuzingga o'xshatsun o'zini,

Ul yuzi chechaklikni qolibtur bahaq ichra.

Baytning mazmuni: Ne yuz bilanki, oy yuzini senga o'xshatsin. Uning yuzi olamda chechak bo'lib qolibdur. Ma'shuqa oshiqning nazdida shu qadar go'zalki, xatto, oyning yuzi uning yuzi oldida chechak chiqqandek.

Gulshanga nazar qilki, seni ko'rmak uchun gul

Oltin keltirur o'rtada har kun tabaq ichra.

Baytning mazmuni: Ma'shuqaning yuzini gulag qiyoslaydilar. Ushbu baytda esa ma'shuqa shu qadar go'zalki, uning husnu jamolini ko'rish uchun gul, har kuni laganda oltin keltirar emish.

Takror qilur vasfi qading sarv oning uchun,

Ko'p tebranur andoqki, kishilar sabaq ichra.

Baytning mazmuni: Kishilar dars olayotganda ko'p tebranadilar, sarv daraxti ham sening qomatinga o'xshash uchun sening qaddingni takror-takror vasf qiladi.

G'arq o'ldi yuzing hijlatidin gul araq ichra,

Sarg'ardi quyosh boqti chu ul sun'i haq ichra

sun'i – yaratish, mahorat; xudo

araq – ter

xijlat – uyalishlik

Baytning mazmuni: Ma'shuqa xudo tomonidan shu darajada go'zal, betakror qilib yaratilganki, u tanho va yagona. Uning go'zalligiga olamda hech bir narsaning qiyosi yo'q. Gul ma'shuqaning go'zal yuziga bir qaradi-yu, uning latofatidan uyalib, terga g'arq bo'ldi. Quyosh esa olamda tanho go'zal etib yaratilgan ma'shuqaga boqdi-yu, uning husni jamolini ko'rib, sariq tusga kirdi.

Gul rang olur lola yuzingdin chaman ichra

Titrrar dog'i kun sham bikin anjuman ichra.

dog'i – kuymoq (tan)

anjuman – majlis

Baytning mazmuni: Ma'shuqaning husnu jamolidan, qizil yuzidan bu olam aro gul rang oladi, xuddi shu go'zallikdan bugun majlisda shamning tanasi titrab-titrab kumoqda. Baytda “gul”, ”lola” so'zlari orqali tanosub san'ati, “lola yuzing” birikmasida esa sifatli va tashbeh san'atlari qo'llanilgan.

Yuzingni ko'rib o'fthonibon gul qochar erdi,

Miskin yugura olmadi tikon orasinda.

miskin – bechora

o'fthonibon – o'z-o'zidan uyalish

Baytning mazmuni: Ma'shuqaning go'zal husnini ko'rib gul o'z-o'zidan uyalib, qochib ketmoqchi bo'ldi, lekin ul bechora tikonlar orasinda yugura olmadi. Baytda mubolag'a, assonans, alliteratsiya, tashbeh, tanosub san'atlari qo'llanilgan.

Naysonda bulut har nechakim ko'z yoshi qildi,

Tishing kibi dur topmadi ummon orasinda

nayson – suryoniy oyining yettinchisi, rivoyatga ko'ra, go'yo shu oyda yoqqan yomg'ir qatralaridan sadafda marvarid yig'iladi, aprel.

Baytning mazmuni: Baytdan shunday ma'no kelib chiqadiki, nayson (aprel) oyida yog'iladigan yomg'ir tomchilaridan ummonda ajoyib,

qimmatbaho marvarid shodalari hosil bo'ladi. Ma'shuqaning tishi shu qadar takrorlanmaski, hattoki, marvarid shodalari ham ma'shuqaning durdek, beqiyos tishi oldida bejilva. Baytda "tishing kibi" birikmasida tashbeh, bulutning ko'z yoshi qilishi esa jonlantirishning tashxis shakli, "tish", "dur" so'zlari orqali esa tanosub san'ati yuzaga kelgan.

Otoiy ijodida ham ma'shuqaning go'zal ta'riflarini ko'plab uchratamiz. Oy bir marta yangilanishi tabiatning azaliy qonuni. U 3-4 kunlik bo'lganda hilolga aylanadi. She'riyatda esa ma'shuqa qoshini shu hilolga o'xshatiladi. Otoiy baytida esa o'sha oy yorning qoshlaridan uyalganidan unga o'xshagisi kelib bir oyda hilolga aylanib turadi:

Yangi oy qoshlari hijolatidin,

Oylarda biror bir ko'rinur.

Jamoling vasfini qildim chamanda

Qizordi gul uyatdin anjumanda.

Shoir yor vaslini chamanda ta'riflagan ekan, bu ta'rifni eshitib, gul uyatdan qizarib ketibdi. Baytda husni ta'lil, jonlantirish kabi san'atlar qo'llangan.

Labingdin qanda ko'rmishkim, uyottin,

Yoshurdi band ichinda nay shakarni.

Shoirning aytishicha, shakarqamish yorning shirin labini qayerda ko'rsa, uyalganidan shakarini bandlariga yoshuradi.

Gul yuzindin munfail nasrin Iram bo'stonida,

Qomatindin Tubiyi Firdavs a'lo bo'lmadi.

munfail – hayajonlangan, hijolatda qolgan

nasrin – oq xushbo'y gul

tubi – jannatdagi daraxt

Baytning mazmuni: Nasrin guli Eram bo'stonida ma'shuqaning gul yuzidan uyalib, hijolatda qolibdi. Ma'shuqaning qomati juda ham rasoki, hattoki, jannatdagi tubi, firdavs daraxtlari ham uning qomati oldida a'lo emas. Baytda "gul yuzin" birikmasida sifatlash, tashbeh san'atlari, "bo'ston" "gul" so'zlari orqali tanosub san'ati, tashxis, husni ta'lil san'atlari qo'llanilgan.

Gar boshi ko'kka yetar oy bir habashi quldir sanga,

Har kishi to'ymas muning, ush yuzida bilgulari.

Baytning mazmuni: Ma'shuqa juda ham latofatli malakki, har kishiki uning jamoliga to'yib bo'lmaydi. Garchi oy ko'kda joylashgan bo'lsada, lekin u sening uchun bir habashi quldir. Baytda husni ta'lil, "oy", "ko'k" so'zlari orqali tanosub, oyning "habashi qul" ga o'xshatilishi tashbeh san'atini yuzaga keltirgan.

Pistavu funduk taloshur, o'xshamoq tor og'zinga,

Mag'zi yo'qluqdin erur, yo'q nimada yorg'ulari.

yorg'u – himoya, muqobillik

yo'qluq – fano, boylik

Baytning mazmuni: Ma'shuqaning og'zi juda ham tor va kichikki, pista uning og'ziga o'xshash uchun o'rin talashadi. Ne ajabki, pistaning mag'zi yo'qlikdan darak berur, shunday ekan, pistaning ma'shuqa og'zidan torlik talashishiga ne hojat, u nimani ham himoya qilib yashirsinki, og'zini ma'shuqaning og'zidek tor bo'lishini xohlasa.

Bir kecha oyni yuzingning qullarindindur dedim

Ushbu so'zni, oy xud fil hol ko'ktin qarmadi.

xud – yolg'iz, o'zicha, xuddi

fil hol – darxol, shu onda

Bayt mazmuni: Oshiq oyni ma'shuqaning qullaridan deb aytadi va oy bu so'zni eshitib, o'zicha, darxol ko'kdan qaramadi.

Xulosa.

O'zbek mumtoz adabiyoti g'oyaviy, badiiy xususiyatlariga ko'ra jahon adabiyoti tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan adabiyotdir. I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Bizning vazifamiz shu xazinani ko'z qorahig'iday asrash va yanada boyitish".

Hozirgi davrdagi tub islohotlar har bir kishidan bilim, salohiyat, samarali mehnat, yuqori malaka, yuksak onglilik, ijodkorlik, jamiyat oldida ma'suliyatni his etishni talab qiladi. Bu muhim vazifalarni amalga oshirish, ma'naviy boy, barkamol shaxsni shakllantirish ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni izchil olib borishni taqozo etadi.

Ma'lumki, ma'naviyat – o'zlikni anglashdan boshlanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan olib borilgan davlat siyosatida ma'naviyatga eng muhim masala sifatida katta ahamiyat berib kelinmoqda. Birinchi davlat rahbarimizning aksariyat asarlarida mazkur masalaga asosiy e'tibor qaratilib, uning asosini tashkil etadigan adabiyotimiz, ma'naviyatimizni yuksaltirishda alohida ahamiyat kasb etishi ko'p bora ta'kidlanadi. Ana shu yuksak e'tibor natijasi sifatida respublikamiz mustaqilligining 18 yilligi arafasida nashrdan chiqqan "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" risolasi fikrimizning yaqqol dalilidir. Risolada "... adabiyot masalasi bu ma'naviyat masalasidir"²³ deb ta'kidlanadiki, bu xulosa naqadar to'g'ri va haqqoniy e'tirof etilganligini chuqur anglaymiz.

Ma'lumki, biz butun dunyoni global muammolar, inqirozlar qamrab olayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Ana shu muammolarning oldini olish va ularni bartaraf etish, shu asosda O'zbekistonning nurli kelajagini ta'min etish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lmog'i lozim.

Ma'naviy barkamollikka erishish insonni doim o'z yo'lidan adashmay borishida asosiy mexanizm vazifasini o'taydi. "Ma'naviyat - insonni ruhan poklash, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamni ichki dunyosini, irodasini

²³ Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –Toshkent: O'zbekiston, 2009. 23-bet.

baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir"²⁴, - deya ma'naviyatga to'g'ri baho bergan edilar birinchi prezidentimiz I.A.Karimov.

Ma'naviyat - insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne'mat va go'zalliklaridan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, uni kuchaytiradi.

Bugungi avlodning barkamol insonlar sifatida kamolga etishadi mumtoz adabiyotimizning, xususan, Alisher Navoiy, Lutfiy, Xorazmiy Bobur, Otoiylar Sakkokiy kabi mumtoz shoirlarimizning o'rni beqiyos.

“Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, mumtoz adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'ni-sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkori. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desa mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir”²⁵.

Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu Shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib kelishi hech kimga sir emas. Bu bebaho meros xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda qudratli ma'rifiy qurodir.

²⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 19-bet.

²⁵ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008, 47-bet.

Xususan, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rahimbobo Mashrab kabi so'z san'atkorlarining ijodiy merosi yoshlarga ona-Vatanga, xalqqa cheksiz muhabbat, mehr-sahovat, vafo-sadoqat, mehnatsevarlik, rostgo'ylik kabi muhim fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Xullas, mumtoz she'riyatimiz shu qadar kata ummonki uning duru javohirlariga egalik qilish juda katta mehnat va mashaqqatni talab etadi. Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimiz bo'yicha ishq masalasi, oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi tafsilotlarni, ma'shuqa ta'rifi –yu tavsifini mumtoz shoirlarimiz ijodiga yondoshgan holda ochib berishga harakat qildik. Zeroki, oshiq va ma'shuqa masalasi barchani qiziqtirgan va shu bo'yicha qalam tebratishga turtki bo'lgan bebaho mavzudir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

I.Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

- 1.Каримов И. Адолатли жамият сари. – Т.: Ўзбекистон.1998-й.
- 2.Каримов И. Истиқлол ва маънавият. Т.: Ўзбекистон. 1994-й
3. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Т.: Ўзбекистон. 1997-й
4. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –Toshkent: O'zbekiston, 2009.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

II. Ilmiy-badiiy adabiyotlar

- 1.Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 1-tom. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2012-y.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 2-tom. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2012-y.
3. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 3-tom. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2012-y.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт тўмлик. I том.- Т.: Фан 1985-й.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт тўмлик. II том.- Т.: Фан 1985-й.
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт тўмлик. III том.-Т.: Фан 1985-й.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт тўмлик. IV том.-Т.: Фан 1985-й.
- 8.Атойи. Девон.-Т.: Фан 2008-й.
9. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: “Бухоро” 1994-й.
10. Эркинов С. Лутфий ҳаёти ва ижоди. –Т.: Фан. 1965.

11. Jalilov B. Mavlono Lutfiy. –Т.: 2015-у.
12. Жалилов Б. Сиз билмаган Навоий. –Т.: “Академнашр”. 2011-й.
13. B.Jalilov, V.Qodirov, M.Tojiboyeva O’zbek adabiyoti. –Т.: O’zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2006-у.
14. Жалилов Б. Мозий ва бугун. –Андижон: 1998-й.
15. Комилов Н. Тасаввуф. –Т.: Мовароуннахр – Ўзбекистон, 2009.
16. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. –Т.: “Тамаддун” 2012.
17. Хайитметов А . Адабий меросимиз уфклари. Тошкент, 1997.
18. Лутфий Сенсан севарим . Ғафур Ғулом Адабиёт ва санъати .1987-й.
19. Лутфий. Девон.- Т.: Бадиий адабиёт нашриёти. 1965-й.
20. Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат -Т.: Фан 1995-й
21. Стеблева И. В. Семантика газелий Бабура. Масква, 1982
22. Хўжаев Т. Навоий шериятидаги анъанавий образларнинг ғоявий-бадиий таснифи. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2010. № 5. 47-48-б.
23. Муборак мактублар. –Т.:Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти 1987-й.